

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

TOMAS ALVA EDISON
(1847-1931)

2022

MART

№38



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 38-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 47 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. А.М.Турғунов Ш.Х.Рустамов ТАЛАБАЛАРНИ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	8
2. Alimova Manzura Abdivaxapovna BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI.....	10
3. Dadasheva Nurxon Burxon qizi HINDIY TILIDAN RASMIY HUIJATLARNI TARJIMA QILISHDA FE'LLAR SEMANTIKASI (HINDISTON RASMIY TILLAR AKTI (1963) MISOLIDA).....	12
4. Davletova Gulendam Islambayevna BOSHLANG'ICH TA'LIMNI INTEGRATSIYA QILISHNING HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI.....	14
5. Mingbayeva Marxabo Qodirovna GOEGRAFIYA FANINI O'QITISHDA GEOGRAFIK XARITA VA ATLASLARNI O'RNI.	16
6. Ismatova Z.A, Sadullayeva Soxiba Rustam qizi BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ONA TABIATGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASHDA TABIATSHUNOSLIK FANINING O'RNI.....	17
7. Safarova Aziza Qobilovna, O'roqova Surayyo Boxodir qizi UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	19
8. Sidikova Guljamol Batiraliyevna SOG'LOM AVLODNI VOYAGA YETKAZISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	21
9. Umirzaqova Zulxumor Abdivaxobovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI.....	22
10. Xasanova Sohiba Mamatovna MAKTABDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA "HAYOLIJ SAYOHAT" INTERFAOL METHODIDAN FOYDALANISH.....	24
11. Лесов Кувондик Сагинович Ортикбоев Муслим Абдукомил ўғли ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНГАН ҲОЛДА ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	25
12. Ubaydullayev Ibrohimjon Orif o'g'li MAKTAB YOSHIDAGI EGIZAKLARNING O'QISHDAGI KAMCHILIKLARNI KORREKTSIYALASH YO'LLARI	27
13. Marxabayeva Mavluda Abdullayevna MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA KUZATISHNING AHAMIYATI	30
14. Raxmonberdiyeva Surayyo Mirg'aniyevna QO'SHIQ KUYLASH JARAYONIDA 5-SINF O'QUVCHILARINING VOKAL-XOR MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	31
15. Якунина Ангелина Алишеровна ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ ВУЗа.....	33
16. Qosimova Gulhayo Bazarovna "FIZIKA FANINI O'QITISH SIFAT-SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI".....	35
17. Аматохунова Дилбархон Шукуровна ЮСУФ ХОС ҲОЖИБНИНГ "ҚУТАДҒУ БИЛИГ" ДОСТОНИ МАЪНАВИЙ- МАЪРИФИЙ ТАРБИЯ ВОСИТАСИ СИФАТИДА	37



18. Фахриддинова Гулнора Усмановна ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУАММОЛИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ	39
19. Eshqulova Maftuna Tangirkulovna BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH	41
20. Kattayeva Feruza Baxranovna BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SODDA MASALALARNI YECHILISHINI MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH	43
21. Xotamova Zarnigor Mamurjonovna BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINING AQLIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR	45



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ТАЛАБАЛАРНИ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

т.ф.н.доц А.М.Турғунов Ш.Х.Рустамов

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ Қарши филиали

Анотация: Ушбу мақолада изланувчан методи ва унинг мазмуни ҳақида қисқача тўхталиб ўтишган.

Калит сўзлар: Масала, савол, жумбоқ, ҳодиса, объект, изланувчан метод.

Аннотация: В данной статье кратко затронут метод исследования и его содержание.

Ключевые слова: Проблема, вопрос, загадка, явление, объект, стремящийся метод.

Abstract: This article briefly touches on the research method and its content.

Keywords: Problem, question, riddle, phenomenon, object, aspiring method.

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 2011 йил 20-майдаги «Олий таълим муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 1533-сон Қарори, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (ПҚ-2909-сон). Қарори олий таълим тизимида ечимини кутаётган муаммоларнинг ҳал этилиши ва мақсадли тадқиқотларнинг ривожлантириш асоси бўлиб хизмат қилади.

Мазкур марказий тушунча шундан иборатки, таълим олувчилар олдида муаммо қўйилади. Муаммо – масала, савол, жумбоқ, ҳал этиш, илмий ечимини кутаётган нимадир, маълумот бўйича нотаниш ниманидир излаш, тадқиқ этиш учун мўлжалланган топшириқ. Кенг маънода олсак, ўқитишни, жавоб топишни тақозо этувчи мураккаб бир назарий ёки амалий вазифа, фанда эса бирор бир ҳодиса, объект, жараёнларни тушунтиришга оид қарама-қарши нуқтаи назарлар ҳолида намоён бўлувчи ва унинг ижобий ечими учун мос назарияни талаб қилувчи зиддиятли вазият [79].

“... муаммоли вазиятларни ташкил этиш, муаммоларни ифодалаш, муаммоларни ҳал қилишда ўқувчиларга зарур ёрдамни кўрсатиш, ушбу ечимларни текшириш, ва ниҳоят эгалланган билимларни тизимлаштириш ва мустаҳкамлаш жараёнини идора қилиш каби хатти-ҳаракатлар мажмуаси. (В. Оконь, 1975). Мазкур таърифдан маълум бўладики, қисман изланувчан метод – энг аввало баъзи бир хатти-ҳаракатлар йиғиндисидир.

Қисман изланувчан методи педагог ва талабаларнинг илм-фаннинг тайёр хулосалари асосида дарс муаммоларини ўртага ташлаш ва ҳал этишдек жараёнларни ўзида уйғунлаштирган, бўлғуси мутахассисларнинг ижодий қобилиятларини ўстиришга қаратилган дидактик фаолият тизими сифатида талқин этади. Қисман изланувчан метод дейилганда педагогнинг таълим-тарбия мақсадларига мос келувчи тизимдаги, билим тақдим этиш борасидаги ва амалий муаммоларни ҳал этишини кўзда тутган. Тадқиқотчи-олимларнинг барча таърифларини бирлаштирувчи жиҳати шундаки, қисман изланувчан метод – педагогик жараён доирасида таълим берувчи ва таълим олувчи ўртасидаги янги билимларни эгаллашга ҳамда ўқув муаммоларини ечиш орқали ижодий қобилиятларни ривожлантиришга қаратилган маълум бир фаолиятидир.

“Ривожлантирувчи таҳсилнинг шундай бир тури сифатида намоён бўладики, унда ўқувчиларнинг мунтазам мустақил изланувчанлик фаолияти билан илм-фаннинг тайёр хулосаларини ўзлаштириш ҳамоҳанглик касб этади, методлар тизими эса мақсадни белгилаш ва муаммолилик тамойилини ҳисобга олган ҳолда барпо қилинган; таълим бериш ва таҳсил олиш ўртасидаги мутаносиблик жараёни ўқувчиларнинг билим эгаллашда мустақил бўлишини, уларнинг илмий тушунчалар ва фаолият усуллари ўзлаштириш



мобайнида таълим олиш мотивлари ва фикрлаш (шу жумладан ижодий) қобилиятларининг барқарорлигини шакллантиришга қаратилган бўлиб, бу муаммоли вазиятлар тизими орқали шарт қилиб қўйилган”[М.И.Махмутов]. Яъни, таҳсил олувчиларнинг мустақиллигини ошириш ҳисобига уларнинг ақл-заковатини ўстириш муаммоли ўқитишнинг вазифаси этиб қўйилсагина, бундай ўқитиш ҳам қисман изланувчи, ҳам ривожлантирувчи таълим сари яқинлашади.

Қисман изланувчи методнинг асосий вазифаси талабаларни ижодий изланиш жараёнига жалб қилишдан иборат. Шу билан бирга, билимлар тайёр шаклда баён қилинмайди, балки муаммони ҳал қилиш орқали ўрганилади, бунинг эвазига билим янада мустаҳкам бўлади. “Муаммоли ўқитиш - ўқитувчининг раҳбарлиги остида муаммоли вазиятларни яратишни ва уларни ҳал қилишда талабаларнинг фаол мустақил иштирокини ўз ичига олган ўқув машғулотларини ташкил этиш тарзидир, бунинг натижада профессионал билим, кўникма ва малакаларни ижодий ўзлаштириш, фикрлаш қобилиятини ривожлантириш рўй беради” [114].

Шундай қилиб, муаммоли вазиятлар келтирилган ҳар хил таърифларда қисман изланувчан метод - асосий тушунчалардан бири сифатида гавдаланади. Уларнинг ечими фикрлаш тарзи фаоллашувига олиб келади. Махсус таҳсил берувчи тизимда муаммоли вазиятларни амалга ошириш учун бу тушунчага формал тус бериш ҳам зарур бўлади. “Фикрлаш жараёни муаммоли вазиятдан келиб чиқади, айнан ундан ибтидо олади” [113]. Қисман изланувчанлик, муаммоли вазиятнинг учта: номаълум, қарама-қаршилик ва эҳтиёж асосий хусусияти ажратиб кўрсатилган. “...талаб қилинаётган ва маълум бўлган билим, усул ёки ҳаракат ўртасида номуносивблик мавжуд бўлганда амалий ... ёки назарий хатти-ҳаракатни амалга ошириш жараёнида юзага келадиган вазият муаммоли деб аталади” [84]. Бироқ кўпчилик тадқиқотчилар мазкур тушунчани таърифлашаркан, қисман изланувчанлик муаммоли вазиятнинг асосий объекти сифатида қийин ҳолатни ҳам, қарама-қаршиликни ҳам бирдек ажратиб кўрсатишади [Д.В. Вилкеев, Б.Г. Зилберман, И.Я. Лернер, М.И. Махмутов, С.Мелешко, М.Н.Скаткин ва бошқалар]. Умуман олганда куйида берилган таъриф ушбу нуқтаи назарни янада аниқроқ ифода этади: “мавжуд нарсадан қониқмаслик ва мақсадларга эришиш йўлида қандай қийинчиликлар борлигини билмаслик фаол фикрлаш тарзини юзага чиқаради. Билим ва билмаслик ўртасидаги зиддиятга асосланган муаммоли вазият вужудга келади. Инсоннинг онгги, шуурида бу қарама-қаршилик ҳал қилиниши керак бўлган масала кўринишида акс этади, инсон уни ечиш йўллари излайди”.

Шундай қилиб, қисман изланувчан муаммоли таълимдан кўзланган асосий мақсад - шахсни ҳар томонлама ривожлантириш, ижодий ва интеллектуал салоҳиятини ошириш, ҳаракатларнинг мустақиллиги, фаолият самарадорлиги ва касбий маҳоратини кенг ривожлантириш каби асосий педагогик мақсадларга эришишдир.

Қисман изланувчанлик вазияти жумласига берилган таъриф муаммоли вазифа таърифига жуда яқин. Бироқ, қисман изланувчанлик тушунчаси муаммоли ўқитиш мазмуни таркибининг элементи ҳисобланади. “Муаммоли топшириқ - қисман изланувчанлик мазмуни ва таркибининг ўлчов бирлиги ва бу таркибнинг ўзи эса муаммоли топшириқлар тизимидир. Муаммоли вазифа - бир-бири билан ҳам, таълим олувчиларнинг мавжуд билимлари билан ҳам зиддиятли муносабатда бўлган элементларни қамраб олади.

Ҳулоса қилиб айтадиган талабаларни муаммоли вазиятларни ҳал қилишда информатика фанини замонавий ахборот ва илғор педагогик технологиялардан кенг фойдаланиб ўқитиш муҳим аҳамият касб этади. Бу ўқувчи амалий фаолиятини фаоллаштириштиради муаммо – масала, савол, жумбоқ, ҳал этиш, илмий ечимини кутаётган нимадир, маълумот бўйича нотаниш ниманидир излаш, тадқиқ этиш учун мўлжалланган топшириқларни бажаришга амалий ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. И. Ю. Бежанова - Delphi7 самоучитель программиста. Москва-2003г
2. Савельев И. В. Курс физики. М.: Наука 1989г.
3. Рустамов Ш. Интеллектуал таълим тизимлари ва уларнинг стратегияси. ЎЗМУ хабарлари. Тошкент. 2021. № 1/3/1.144-147-б
4. Рустамов Ш. Ta'lim jarayonidagi vaziyatlardan samarali foydalanishning innovatsion pedagogik shartlari “Mug'allim ham yzliksiz bilimlendir” Ilmiy-metodik jurnal 2020 yil 6-son.



BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Alimova Manzura Abdivaxapovna,

Namangan viloyati, Davlatobod tuman 64-maktabning

1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

tel: +998 97 212 99 42

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich, o'yin, ahamiyati, didktik, faoliyat, aqliy, bolalar

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan o'qish degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari kerak. Boshlang'ich sinf darslarini samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri – darslarda an'anaviy va noan'anaviy metodlardan samarali foydalangan holda darslarni to'g'ri tashkillashtirish va o'quvchilarni kreativ fikrlash sifatini shakllantirishdir. O'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, dars samaradorligini ta'minlashda darslarda foydalaniladigan qiziqarli mashqlar, didaktik o'yinlar ahamiyati kattadir. Didaktik o'yinlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi. Didaktik o'yinlar intellektual metodlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida o'quvchini ichki imkoniyatlarini oshirishga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Didaktik o'yinlar, butun sinf ishtirok etganda bolalar o'rtasida o'zaro hamkor bo'lib ishlash, o'z-o'zini boshqara bilish, diqqatni bir joyga yig'ish, saranjomsarishta bo'lish, tez tushunish va savollarga tez javob berish va boshqa tarbiyaviy xislatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday didaktik o'yinlar, o'quvchining o'qituvchiga nisbatan yotsirash xislatlarini kamaytiradi. Natijada o'qituvchi bolaga do'stga, u yoki bu masalani hal qilishda hamkorga aylanadi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonli bilan mashq qiladilar. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning boy tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan ijro etadi. O'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi. Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok qiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo'sh kelma», «Eng yaxshi hisobchi», «Kim turgan saf yaxshiroq», «Doiraviy misollar», «Zanjircha», «Narvoncha», «Qaysi surat bekitildi?», «Jadvalni qidirib top», «Nimani taqillatdim?», «Jim», «Bilmasvoyning xatolari», «Bu qaysi shakl?», «Zukkolar», «Zinadan tushing», «Topishmoqlar», «Zigzag», «Moychechak», «Fikrni davom ettir», «Bo'g'inlar», «Teatr», «Sonli jadvallar», «Qiziqarli kvadratlar», «Bolalar



bog'chasida» «Mehmondorchilikda», «Kim epchil?», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin», «Ko'rganni eslab qolish diktanti» singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Xulosa qilinb aytganda, yuqorida keltirilgan didaktik o'yinlardan samarali foydalanish orqali, darslarini qiziqarli, mazmunli tashkil etib, o'quvchilar bilimida yuqori ko'rsatkichlarga, shuningdek sinfidagi past o'zlashtiruvchilarning darsning faol ishtirokchiga aylanishiga ham erishish mumkin. O'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchdir, o'qish, o'qish, chizmalar chizish, bir-biri bilan do'stona munosabatda bo'lish, oldida turgan muammolarni hal qilishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasidir. Har qanday interfaol usul o'quvchilarni to'g'ri va maqsadli ishlatganda mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya — bu o'qituvchi asosiy javobgar shaxs bo'lgan ta'lim tizimining ratsional usullarini ishlab chiqaradigan jarayon. Chunki uning asosiy vazifasi o'quvchilarga tezkor, aniq va tushunarli tarzda ma'lumot berishdir. Har bir o'qitish tizimining shakllari, uslublari davr talablariga mos ravishda o'zgarishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2009.
- 2.G'ulomov A., Ne'matov X. Ona tili ta'limi mazmuni. –T. 1995 y.



HINDIY TILIDAN RASMIY HUJJATLARNI TARJIMA QILISHDA FE'LLAR SEMANTIKASI (HINDISTON RASMIY TILLAR AKTI (1963) MISOLIDA)

Dadasheva Nurxon Burxon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik

tarjimashunoslik yo'nalishi

1-kurs magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada hindiy tilidagi rasmiy uslubga oid fe'llardan misollar, ularning ma'nolari, sinonimiyasi hamda tarjimada berilish masalalari yoritilgan. Rasmiy uslubda ishlatiladigan fe'llar boshqa uslublarda turli ma'nolarda kelishi kuzatiladi, maqolada bu ham ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar. Hindiy tili, rasmiy uslub, fe'l, Rasmiy tillar akti, tarjima.

Hindiy bir emas, bir necha tillar zamirida shakllangan til hisoblanadi, shu jihatdan ushbu tildagi so'z boyligi ham anchani tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, aytish mumkinki, birgina so'z turli uslublarda turlicha ma'noda qo'llanishi mumkin, bu esa tarjima jarayonida yanada e'tiborli bo'lishni talab etadi. Xususan, rasmiy uslubdagi materiallarda ham qoliplashgan so'zlar mavjud bo'lib, ularni boshqa ma'noda qo'llash tarjimadagi qo'polikka olib keladi.

Ayniqsa, fe'l so'z turkumiga oid so'zlar har bir tilda ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Masalan, hindiy tilida प्रवृत्त होता fe'li turlicha ma'nolarda, xususan, *moyil bo'lish, solish, ortish, qo'lga olish* kabi ko'plab ma'nolarni anglatib keladi. Lekin, rasmiy hujjatlarda ushbu so'z ko'pincha “kuchda qolish”, “amalda bo'lish” ma'nolarida kelishi ma'lum: “यित् दनि” से, धारा 3 के सम्बन्ध में, जनवरी, 1965 का 26वां दनि अभिहित है और इस अधिनियम के किसी अन्य उपबन्ध के सम्बन्ध में वह दनि अभिहित है जसि दनि को वह उपबन्ध प्रवृत्त होता है;¹

(“Belgilangan kun”, 3-bandga binoan, 1965 yil 26 yanvar kundan, ushbu Qonunning boshqa har qanday qoidalariga nisbatan esa ushbu qoida kuchga kiradigan kunni anglatadi;)

Yana bir misolga e'tibor qaratamiz:

जसि तारीख को धारा 3 प्रवृत्त होती है उससे दस वर्ष की समाप्ति के पश्चात्, राजभाषा के सम्बन्ध में एक समिति, इस विषय का संकल्प संसद के किसी भी सदन में राष्ट्रपति की पूर्व मंजूरी से प्रस्तावित और दोनों सदनों द्वारा पारित किए जाने पर, गठित की जाएगी

(3-bo'lim kuchga kirgan kundan boshlab o'n yil o'tgandan so'ng, Prezidentning avvalgi ruxsatnomasi bilan parlamentning istalgan palatasida taklif qilingan masala bo'yicha qarorga binoan Davlat tili bo'yicha qo'mita tuziladi.)

Yuqoridagi matn g'athiti kii ja'egii qo'shma fe'li bilan tugallangan. O'zbek tilidagi tarjimada esa ushbu fe'l **tuziladi** fe'li orqali ifodalangan. Shuningdek, ushbu so'zni **tashkil qilinadi** tarzida ham ifodalash mumkin. Agar so'zni o'zbek tilidan hindiy tiliga tarjima qilish kerak bo'lsa, sohaga oid terminlardan yaxshi xabardor bo'lmagan tarjimon बनाना, बना देना, नमिति करना, ba'zi o'rinlarda esa san'sthapiti करना deb tarjima qilishi mumkin. Ammo rasmiy hujjatlarning barcha o'rinlarida ham ushbu so'zlarni qo'llash to'g'ri emas. G'athiti करना rasmiy uslubda tashkil qilmoq, shakllantirmoq degan ma'nolarni anglatadi va aynan qonuniy bosqichma-bosqich yo'l bilan biror tashkilot yoki jamoaviy tuzilmalarni tashkil etishni anglatadi hamda shu yo'l bilan o'zining boshqa sinonimlaridan tubdan farqlanadi.

इस समिति में तीस सदस्य होंगे जनिमें से बीस लोक सभा के सदस्य होंगे तथा दस राज्य सभा के सदस्य होंगे, जिो क्रमशः लोक सभा के सदस्यों तथा राज्य सभा के सदस्यों द्वारा आनुपातिक प्रतिनिधित्व पद्धति के अनुसार एकल संक्रमणीय मत द्वारा निर्वाचित होंगे।²

(Qo'mita o'ttiz nafar a'zodan iborat bo'lib, ulardan yigirma nafari Lok Sabha a'zolari va o'n nafari Rajya Sabha a'zolari bo'lib, tegishli ravishda Lok Sabha a'zolari va Rajya Sabha a'zolari tomonidan tegishli ravishda yagona o'tkaziladigan ovoz berish orqali proportsional vakillik tizimida saylanadilar.)

Yuqoridagi misolda keltirilgan निर्वाचित होना fe'li “saylanish” ma'nosida kelgan. Ushbu fe'l alohida shaklda “qaytish”, “qaytarish”, “nimaningdir qaytishi” ma'nosida ham keladi. Agar tarjima

1 राजभाषा अधिनियम, 1963

2 O'sha manba.



jarayonida ushbu soʻzning matn ichidagi maʼnosini bilmasdan soʻzma-soʻz maʼno qidirib tarjima qilinadigan boʻlsa, tarjima mazmuni ham oʻzgarib ketadi, tarjimonga ham qiyinchilik tugʻdiradi. Shu sababli, rasmiy hujjatlar tarjimasini bohlashdan avval rasmiy uslub va unga oid terminlar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq. Rasmiy uslubda soʻzlashuv uslubida boshqa maʼnoda ishlatiladigan soʻzlar butunlay boshqa maʼnoda qoliplashgan boʻladi. Shu sababdan, tarjima jarayonida tarjimadagi maʼnoni oʻzaro adashtirib yubormaslik muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Tarjima nazariyasi. - B.Mamarajabov, Toshkent:. 2021
2. राजभाषा अधिनियम, 1963
3. Translation: Its Theory and Practice. - Singh, Avadhesh Kumar. New Delhi: Creative Books, 1996.
4. Tarjima nazariyasi asoslari. – G'.Salomov, O'qituvchi:.1983.



BOSHLANG'ICH TA'LIMNI INTEGRATSIYA QILISHNING HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI

Davletova Gulendam Islambayevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tuman
51 sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limni integratsiya qilishning talablari hamda bunga zamonaviy yondashuvning zarurati haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash, integratsiyalangan kurslar, Y.M.Kolegin, O.L.Aleksinko, Robert Karlos

Boshlang'ich maktab ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas.

Hozirgi kunda asosini tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi.

Bunday yondashish anchadan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida hal etilgan. Bunda so'z faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'tta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan.

Chet el tajribasi bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalangan fanlar ko'pgina mamlakatlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu ekologik yo'nalishga ega bo'lgan integratsiyalangan fanlar jahon hamjamiyatida o'quvchilarda atrof-muhitga javobgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi to'g'risida habar beradi.

Hozirgi kunda integratsiyaning bir necha usullari qo'llaniladi. Birinchisi, bir nechta fanlarni bir fanga birlashtirish. Shu masaladagi 1988-yilda chop etilgan xalqaro pedagogik tajriba yakunlariga bag'ishlangan tadqiqot-foydali manba ko'pgina xorijiy mamlakatlar boshlang'ich maktablarining o'ziga xos xususiyati integratsiyalangan kurslar bo'yicha ta'lim bo'lib qoldi. Kursning maqsadi bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan suhbatlashishga faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir.

Boshlang'ich maktabda integratsiyaning amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi bajaradi. U bolalarni arifmetikaga, yozishga, tabiiy ko'pgina boshlang'ich tushunchalar va yana ko'pgina narsalarga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinflarda bir o'qituvchining dars berishini integratsiyaning bir usuli, deb hisoblasak ham bo'ladi.

Integratsiyaning amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundaki, usullarning biridan yuz o'girib, ikkinchisida barcha darajada o'qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishdir. Masalaning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga egaligidir. Boshlang'ich maktabda integratsiyaning bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq.

Ta'limning keyingi pog'onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang'ich ta'lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi. Y.M.Kolegin va O.L.Aleksinko integratsiyaning salbiy omillarini quyidagicha ko'rsatib berishadi:

- o'quv predmetlarining chegaralangan soni-olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni ko'rinishini, qismlarining o'zaro bog'liqligini aks ettirish bilan to'ldirish mumkin.



- juda muhim bo‘lgan o‘qish, yozish va sanoq ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati.

Bu narsalar xuddi fanlarga bo‘linib o‘qitishni talab qiladiganga o‘xshaydi. Lekin o‘qish va matematikaga o‘qitishning an‘anaviy tajribasi ham keng integratsion imkoniyatlar haqida dalolat beradi. Bunda o‘qish fan sifatida o‘z ichiga faqat badiiy matnlarni emas, tarix, tabiatshunoslik bo‘yicha materiallarni ham oladi. Matematika arifmetika, algebra va geometrik materiallarini o‘z ichiga oladi. Bunday integratsiya muhim ko‘nikmalar hosil qilishga halaqit bermaslik, aksincha, ularni shakllantirishga kafolat beradi.

Robert Karlosning aytishicha, boshlang‘ich maktab faqat o‘qish, yozish va sanashni o‘zgartibgina qolmasdan, bundan ham muhimroq va kattaroq masalani amalga oshirishi kerak. Chunki har bir bola shakllantirish davrida uning intellektual faolligini rag‘batlantirish, tabiiy qobiliyati singari uning keyingi muvaffaqiyatlari uchun juda muhimdir.

Integratsiyalangan kurslarni shu yoshdagi bolalarga tushunarli va qiziq bo‘lishi uchun bayon qilishning qiyinligini bartaraf etishning yo‘llari amaliyotda tekshirilgan eng ma‘qul uslublarni ishlab chiqishda hamda o‘qituvchilar tayyorlashning maxsus tizimidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Л. Н. Алексеева. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/Л. Н. Алексеева// Учитель. - 2004. - № 3. - с.28.
2. С.М.Вохмянина. По системе Марии Монтессори/ С. Н. Вохмянина//Педагогический вестник. - 2002. - № 8 (299). - с.7.
3. Т.Х.Дебердеева. Новые ценности образования в условиях информационного общества/ Т. Х. Дебердеева// Инновации в образовании. - 2005. - № 3. - с.5.
4. В.И.Загвязинский. Инновационные процессы в образовании и педагогическая наука/ В.И.Загвязинский// Инновационные процессы в образовании: Сборник научных трудов. - Тюмен, 1990. - с.8.



GOEGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA GEOGRAFIK XARITA VA ATLASLARNI O‘RNI.

Mingbayeva Marxabo Qodirovna

Ohangaron tumani 20- umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi.

Tel: +99894 937 55 41.

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuv hamda fanni o‘quvchilarga tushuntirishda geografik xaritalarni o‘rni va ahamiyati haqida fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Geografiya, materiya, metod, kartografik usul, geografik xarita.

Ma’lumki biror hudud, maydon (materik, qit’a, mamlakat, provinsiya va h.k) haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishda geografik xaritalarning ro‘li beqiyosdir. Chunki, aynan ular orqali voqea-hodisalarning hududiy taqsimlanishini tushunarli ravishda ko‘rsatib beriladi. Ta’kidlash joizki, geografiya fanini o‘qitishda kartografik asarlardan foydalanish metodik muammolardan sanaladi. Bugungi kunda karta va boshqa kartografik manbalar vositasida maktab o‘quvchisida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish davr talabiga aylandi.

Geografik bilimlarni shakllantirishda kartografik asarlarning mukammal turi bo‘lgan atlaslarning ahamiyati katta. Chunki, atlaslar darsliklar mazmunini to‘ldirishga hamda voqeylikni ko‘rgazmali o‘rgatishga asoslangan va o‘quvchilarda soxaviy bilim va ko‘nikmalarning o‘zlashtirishda yaxlit tasavvur shakllantiradi. Shuning uchun, geografiyani o‘qitishda atlaslar bilan ta’minlanishi geografiya kurslarini o‘qitishda kartografik asarlardan foydalanish o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni kundalik hayot bilan bog‘lash va tasavvur qilish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonda atrof-muhitda ro‘y berayotgan hodisalar borasidagi geografik tasavvur va tushunchalar oson shakllanadi va ulardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan geografik atlaslardan foydalanish masalalari va bu boradagi muammolar anchagina. Ta’lim jarayonida kartografik usulni qo‘llash o‘quvchilarning geografik tasavvurlari doirasining kengayishi, mavzularning ular uchun tushunarli bo‘lishi hamda ular tomonidan puxta o‘zlashtirishiga yordam beradi. Binobarin, xududda tog‘ va tekislik, daryo va ko‘l, cho‘l va o‘rmon bir-biri bilan yonma-yon joylashgan bo‘lib, o‘quv bilish jarayonida jonli mushohada yuritish uchun qulay sharoit yuzaga keladi.

Dars jarayonida geografik atlaslardan foydalanish quyidagi holatlarning ro‘y berishini ta’minlaydi. Birinchidan, ko‘rgazma vositalar o‘quvchilarda geografiya darslariga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ikkinchidan, ular tomonidan geografik tushunchalarning chuqur o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Geografiya fanini o‘rganishni geografik karta va atlassiz tasavvur qilib bo‘lmaganligi uchun, ulardan foydalanish xususiyatlari ham o‘ziga xos hisoblanadi. Kartografik asarlar ichida o‘quv atlaslari alohida o‘rin egallaydi. Umumta’lim maktablari o‘quv atlaslari 2 xil bo‘ladi: o‘rta maktablarda geografiya fanini o‘qitish uchun mo‘ljallangan o‘quv atlaslari va o‘quv-o‘lkashunoslik atlaslari. Mazkur atlaslar O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari va davlat kadastri davlat qo‘mitasi huzuridagi “Kartografiya” ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi tomonidan darsliklar mazmunidan kelib chiqib chop etiladi.

Maktab geografiyasi atlaslarida dastlab umumgeografik kartalardan foydalaniladi, kartaga bo‘lgan ko‘nikma, tushuncha va bilimlar oshib borgandan so‘ng mavzuli kartalardan iborat atlaslardan foydalanish imkoniyati tug‘iladi. Natijada ma’lum hududlar (materik, davlat va h.k.lar) ning geografik o‘rnigina emas, balki ularda sodir bo‘layotgan tabiiy va iqtisodiy geografik o‘zgarishlarni, ularning xususiyatlarini ham bilib olish imkoniyati tug‘iladi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, kartografik asarlar bilan ishlash voqea-hodisalar to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qilish, ularni yodda saqlash, tahlil qilish, taqqoslash, mantiqiy fikrlash o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish va shu asosda xulosa chiqarish yo‘llarini o‘rgatadi. Ularda maktabda o‘quv jarayonida o‘quvchilar faolligini kuchaytirishda, fanni mustaqil o‘rganish va unga qiziqishni oshirishda, geografiyani hayot bilan bog‘lashda, o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ulomov P va boshq. Geografiya: O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi: 7-sinf uchun darslik -T.: O‘qituvchi, 2014

2. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi atlas. 6-sinf // -T.: “Kartografiya” ilmiy ishlab chiqarish davlat korxonasi, 2017.-41 b.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ONA TABIATGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASHDA TABIATSHUNOSLIK FANINING O'RNI.

Ismatova Z.A

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrası dots.p.f.n,

Sadullayeva Soxiba Rustam qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi 4 bosqich talabasi
Tel:+998970732912

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashda o'qituvchining tabiatshunoslik fanini qay tartibda tashkil qilinishi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlari: qobiliyat, tabiat, tabiatshunoslik, jonli tabiat, jonsiz tabiat.

Bugungi kunda farzandlarimizning barkamol shaxs sifatida shakllantirishda maktab, mahalla va oila hamkorligi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Odobli, bilimdon va mehnatsevar, farzand nafaqat ota- onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Bolani jamiyatda qabul qilingan qonunlarga, tartib- qoidalarga va axloqiy normalarga rioya qilishiga o'rgatish avvalo oiladan boshlanadi. Farzandning axloq- odobi, xulq-atvori dastavval oilada shakllanadi, undagi insoniylikning ilk xislatlari ota-ona bergan tarbiya orqali vujudga keladi. Oilada ota-ona, mahallada qo'ni-qo'shni, maktabda pedagog-tarbiyachilarning nazorati ostida bo'lgan bolada axloqiy rivojlanish jarayoni ravon kechadi. Bola oilada olgan tarbiyani rivojlantirishda, maktab ta'limi alohida o'rin tutadi. Maktab bolaning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish va unga zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berishda muhim omil hisoblanadi.

Bolalar turli sohalaridagi faoliyatlarida — mehnat, o'yin, o'qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bir bola bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir bolalar tezlik bilan bajaradi. Ayrim bolalarning faoliyatlari samarali, serunum bo'lsa, boshqalariniki esa kam unum bo'ladi. Ba'zi bolalar o'z ishlarida ijodiy, original usullarni ko'proq qo'llasa, ba'zi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamroq ko'rinadi. Bolalar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlari qandayligini aniqlab olamiz. Bu esa o'z navbatida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash jarayonini qay tartibda tuzishini belgilab beradi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash o'qituvchi-pedagog zimasiiga bir qator mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatshunoslik fanini o'rganish ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi:

- bolalarni odamlarning ijtimoiy hayoti va mehnati bilan tanishtirishni;
- xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ikkinchisida:

- tabiat bilan bevosita mulqotda bo'lish;
- tabiat bilan tanishtirish;
- tabiat obyektlari va hodisalari to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish;
- tabiatga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish;
- tabiatdagi xulq- atvor madaniyatini tarbiyalash;
- tabiat muhofazasida baholi qudrat faoliyat tashkil qilish nazarda tutiladi.

Tabiat bilan tanishtirish ekskursiyalarda, o'quv sayrlarida, amaliy ishlarda, kuzatishlar o'tkazish asosida amalga oshiriladi. Tabiatni, unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kunda kuzatib borilishini tashkil qilish katta ahamiyatga ega. Bolalarning amaliy faoliyati (ijtimoiy foydali ishlar, mehnat, o'yin) jarayonida odam mehnatini o'rganish ikki yo'nalishni bog'lovchi vositadir.

1 va 2- sinf darslarining mazmuni «Bizning uy va jonajon tabiat», «Bizning maktab va jonajon tabiat», «Jonajon mam- lakat» mavzularida ochib beriladi. Bu mavzular asta-sekin yaqindan uzoqqa borish bilan atrofimizdagi olam to'g'risidagi tasavvurlarni to'plash, boyitish va tizimlashtirishga imkon beradi.

«Atrof olam bilan tanishtirish» predmeti boshlang'ich sinflarda boshqa fanlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiat va jamiyat hayotini, odamlar mehnatini kuzatish ona tili, mehnat ta'limi, tasviriy faoliyat, matematika kabi fanlarning o'quv materialini yaxshiroq tushunib olishga yordam



beradi. Bu dasrlarda, atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotlarda tabiat to'g'risida o'quvchilar oladigan tasavvurlar kengaytiriladi va boyitiladi.

«Atrof olam bilan tanishtirish» boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatshunoslik fanini o'rganish davomi hisoblanga; «Tabiatshunoslik» o'z ichiga tabiat fanlarining turli sohalarir qamrab oladi. 3-4 - sinflarda tabiatshunoslikni o'rganish jonsiz tabiat bilan jonli tabiat bir butunlikni tashkil qilishi, shuning uchun ham ular o'zaro uzviy bog'liq ekanligi to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni izchillik bilan rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday uzluksiz ta'lim o'quvchilarda ona tabiatga bo'lgan muhabbatni qalblarida kurtak ochishini taminlab beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan birgalikda amaliy ishlarni tashkil qilish jonli tabiat burchagini yaratish, tabiatga ekskursiyalar uyishtirish, o'quvchilarning o'z qo'lari bilan parvarishlayotgan jonli tabiat burchagidagi (gular, o'simliklar, hayvonlar, qushlar) ona tabiatga bo'lgan munosabatini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyaotlar:

1. M.I. Nuriddinova. “Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi”. – T: 2005
2. N.Atayeva, F.Rasulova, M. Salayeva, S.Hasanov. “Umumiy pedagogika”. – T: 2012
3. M.E.Zufarova, P.I. Ivanov. “Umumiy psixologiya”. – T: 2008



UMUMIY O`RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O`QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Safarova Aziza Qobilovna

Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi
54 - umumiy o`rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o`qituvchisi.
normurodov.oibek@mail.ru

O'roqova Surayyo Boxodir qizi

Surxondaryo viloyati Uzun tumanidagi
34 - umumiy o`rta ta'lim maktabining
Tasviriy san'at va chizmachilik fani o`qituvchisi.
normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o`rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o`quv jarayoniga, xususan dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, texnologiya, ilmiy, ta'lim, o`qitish texnologiyasi, dars, ko'nikma, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi.

Ma'lumki, umumiy o`rta ta'lim maktablarida o`quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san'at o`quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo`ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o`qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo`ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go`zallik hissi ortdi, voqelikdagi go`zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o`zgarishlar sodir bo`ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo`ldi. San'at esa o`zining o`ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ`ib etuvchi kuchli g`oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste`dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzuistaklarini, ularning go`zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, hulq va odatlari, yutuq va mag`lubiyatlari ularning asarlarida o`z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo`lgan ana shunday san'at hayot go`zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da`vat etdi.

Ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo`lanilishi o`qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O`qituvchilarning faoliyati ko`p qirrali bo`lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo`naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholavchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo`ladi. Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o`zaro mazmunan bog`liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta`minlash, tasviriy san'at o`quv jarayonini tashkil etishning ilg`or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o`quv uslubiy majmualar sifatini ta`minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda o`qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo`yicha savodxonligini doimiy oshirib borish, umumiy o`rta ta'lim maktablarida axborot resurs va zamonaviy o`quv adabiyotlari bilan ta`minotini yanada rivojlantirish, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo`nalishlarida ilg`or xorijiy tajribalarni o`rganish oliy ta'lim muassasalarida rassom-pedagoglarning faoliyat yo`nalishlari tarkibini belgilaydi. Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki umumiy o`rta ta'lim maktablar tizimini xususan, tasviriy san'at ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern yangilangan, zamonaviy, tekor o`sish) o`quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, tasviriy san'at ta'limga innovatsion (inglizcha innovation yangilik kiritish) yondashuv g`oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo`nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan



va texnikaning so`nggi yutuqlari, ilg`or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg`unlashtirishga qaratilganligi bilan an`anaviy yondashuvdan farq qiladi. Ta`lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta`minotning mavjudligini ko`zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san`at o`quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg`or pedagogik tajribalarni o`rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o`quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo`nalishlardan sanaladi. Bu esa o`z navbatida tasviriy san`at o`quv mashg`ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma`ruza (muammoli ma`ruza, ma`ruza-seminar, virtualtexnologik ma`ruza, vizual ma`ruza, binar ma`ruza, kirish ma`ruzasi, ma`ruza-konferentsiya, axborotli ma`ruza, ma`ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma`ruza, on-line ma`ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o`qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o`yinlar, o`quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv jarayoniga, xususan dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o`ziga xos hisoblanadi. Interfaol so`zi inglizcha so`z bo`lib, «inter» o`zaro va «act» harakat qilmoq ma`nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol ya`ni o`zaro harakat qilmoq ma`nosini anglatadi. Bunday o`zaro harakat turlariga “ o`qituvchi” va o`quvchining maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o`qitishda o`qituvchi o`quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo`lib, o`quvchi bu faoliyatning sub`ekti sifatida namoyon bo`ladi. Interfaol o`qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo`lib, interfaol o`qitish jarayonida ta`lim oluvchi o`qitishning ob`ektidan o`zaro hamkorlikning sub`ektiga aylanishi, o`quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. O`qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o`yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko`rib chiqiladi. Interfaol o`qitish o`quvchilardan axborotlarni o`zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta`lim maqsadlarining to`laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta`limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos sifatida hizmat qiladi. O`qituvchining jadal faoliyati o`quv faoliyatining asosiy ko`rinishi sifatida namoyon bo`lib, u mazkur harakatning sub`ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko`rsatadi, o`quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub`ekti o`quvchi hisoblanadi; muvaffaqiyatli o`quv faoliyatining asosiy ko`rsatkichi, uning natijasi o`quvchining fikrlash usullarini o`rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat; o`quv faoliyatning asosiy ko`rsatkichi o`quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta`lim jarayonining asosiy sub`ekti bo`lgan o`quvchida fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o`qitish taktikasi muhim o`rin tutadi, o`quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni o`quvchidan o`zining shaxsiy bilish mahorati va ko`nikmalarini o`zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

**Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki**, innovatsion ta`lim texnologiyalarini ilm-fan va ta`lim sohasida muvaffaqiyatli qo`llash - o`quvchilarda o`z oldiga maqsad qo`yish, erkin va mustaqil fikrlash, o`z fikr-mulohazalarini bayon etish va uning to`g`riligini boshqalarga isbotlay olish, yakka tarzda va juftlikda ishlash, hamkorlikda ishlash, ijodiy fikrlash, ma`lumotni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o`z iqtidorini namoyon qilish, berilga imkoniyatlardan eng ma`qulini tanlash, bahs-munozaraga kirishish ko`nikmalarni shakllantiradi va rivojlantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. J. O. Tolipova. “Pedagogik kvalimetriya”. T. 2015.
2. M.Mirsolieva., G.Ibragimova . Ta`lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. T. 2015
3. S.Abdirasilov., N.Tolipov Dasgohli rangtasvir. “Iqtisod-moliya” T.: 2010



SOG‘LOM AVLODNI VOYAGA YETKAZISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Sidikova Guljamol Batiraliyevna

Angren shahar 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
jismoniy tarbiya o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson a‘zolarining tuzilishi, suyak - muskul tizimi, badanning uyg‘unligi va ularning funksional faoliyatini boshqarishda sportning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Gigiyena qoidalar, jismoniy tarbiya, suyak - muskul tizimi, sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish bog‘chada boshlanib, maktabda sekin-asta jiddiylashib boradi. Aynan shu davrda jismoniy tarbiya faniga qiziqtirish orqali bolada jismoniy madaniyat shakllantiriladi. Tabiiyki, bu jarayonni qanchalik to‘g‘ri tashkil etish jismoniy tarbiya o‘qituvchisining bilim va mahoratiga bog‘liq.

O‘quvchilarning jismoniy kamolotlari uchun sharoit yaratish va pedagogik boshqarish jismoniy tarbiyaning vazifasidir. Sport o‘yinlari tizimida jarayoniy kamolot diagnostikasi muhim o‘rin tutadi. Jismoniy kamolot jismoniy tarbiya saviyasi, fan tili bilan aytilganda, jismoniy tarbiya samaradorligi ko‘rsatkichidir. Maxsus usul va jismoniy texnika asosida o‘quvchilarning sog‘liqlarini, har bir shaxs kamoloti saviyasini tashkil etish: belgilangan norma va undan uzoqlashish ko‘rsatkichlarini oldindan belgilash negizida jismoniy tarbiya uchun doimiy ko‘rsatkich aniqlanadi. Jismonan yetuklik deganda, badanning tashqi ko‘rinishidagi garmoniya, go‘zallik shakli, jismoniy sifatlarning yuqori darajadagi kamoloti tushuniladi. Agar diagnostika o‘quvchilarning yoki biron-bir o‘quvchining jismoniy va tibbiy ko‘rsatkichlari pasayib ketayotganligini ko‘rsatsa, demak, zudlik bilan jismoniy tarbiyadagi mavjud tizimni o‘zgartirish lozim.

Shuning uchun ham maktablarda, individual yoki guruhli tartibdagi jismoniy tarbiyani tashkil etishni yo‘lga qo‘yish tavsiya etildi. Jismoniy madaniyat jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Shu bilan birgalikda, jismoniy madaniyat inson va jamiyatdagi umumiy madaniyatining ham ajralmas qismidir. Jismoniy madaniyat mazmuniga quyidagilar kiradi:

1. Inson a‘zolarining tuzilishi va ularning funktsional kamoloti. Ichki a‘zolar, nerv va harakat, suyak - muskul tizimi, badanning uyg‘unligi va ularning funktsional faoliyatini boshqarish.
2. O‘quvchilarning sog‘ligini mustahkamlash.
3. Gigiyena qoidalariga ko‘nikish.
4. O‘quvchilarning har tomonlama mohirligini o‘stirish.
5. Bo‘lajak ishchi—mehnatkashlarning jismoniy va fiziologik sifatlarini kasb ahamiyati jihatidan shakllantirish, ish qobiliyatlarini oshirish.
6. Shaxsiy jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash. Ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya mazmuni nihoyatda kengdir.

Bu vosita yoshlarimizning turmush tarzini, jismoniy madaniyat va sport asosida mazmunli shakllanishini ta‘minlaydi. Ilg‘or pedagogik tajribalarning ko‘rsatishicha, jismoniy tarbiya o‘quvchi va o‘quvchilar jamoalarining turmush tarzi va dasturiga aylangandir. Ayniqsa jismoniy tarbiya darslari, sport va jismoniy tarbiya targ‘iboti, ishlab chiqarish ta‘limi texnologiyasi va ishlab chiqarish amaliyoti borasidagi yutuqlarni rag‘batlantirishda, o‘quvchilarning uzoq vaqtgacha ish qobiliyatlarini saqlab turishda, yoshlarimizning jismoniy va fiziologik sifatlarini kasbga bog‘lash borasidagi jarayonlarda beqiyos ahamiyatga egadir.

Bolalarning kundalik hayotida harakat faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, bolaning sog‘lom jismoniy holatiga va kun davomidagi ruhiyati uchun zarur harakat tartibining bajarilishini ta‘minlaydi. Bolalarning jismoniy tarbiyalash dasturining sog‘lomlashtirish va ta‘lim –tarbiyaviy vazifalari turli shaklda amalga oshiriladi. Ular orasida harakatli o‘yinlar, musobaqa va estafeta o‘yinlari

o‘tkazish ham muxim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya darslarida yangi mavzularni musobaqa usulida tushuntirilsa, o‘quvchilarning qiziqishi oshib, yangi mavzuni xilma–xil o‘yinlar vositasida osongina, tezroq idrok qiladilar va o‘zlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogic texnologiyalar. Toshkent 2013 y
2. Muslimov N., Usmonbekova U. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent 2015 y



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI.

Umirzaqova Zulxumor Abdivaxobovna

Ohangaron tumani 18-umumiy o'rta ta'lim maktabining I-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'limda ham o'quvchilarni faol, mustaqil fikrli, dars jarayonida o'z fikrlarini himoya qila oladigan shaxslar qilib tarbiyalashda ilg'or pedagogik zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati kattadir.

Kalit so'zlar: ilg'or pedagogik texnologiya, mustaqil fikrlash, shaxsga qaratilgan ta'lim, interfaol usullar.

Boshlang'ich sinflarda yutuqlarning asosi, bolalar bilan o'tkaziladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiya katta ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziquvchan, boshqarishga moyil bo'ladilar. O'quvchi shaxsiga qaratilgan ta'lim, o'quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijobiy fikrlashga o'rgatish, mustaqilligini, erkinligini ta'minlash, qiziqishlari asosida (motivatsiya) ish yuritish, ichki imkoniyatlarini ishga solish o'z qiziqishlari orqali qo'shimcha ta'lim olishga yo'llash, o'z-o'zini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim- tarbiyada zamonaviy o'qitish uslublari deganda yangi interfaol usullar nazarda tutiladi. Interfaol – lotincha “inter” so'zidan olingan bo'lib “orasida, o'rtasida” degan ma'noni anglatadi, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish kerak, deganidir. Bu uslublar bilan ishlash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, ayniqsa, 3-4 – sinflarda juda yaxshi samara beradi. Buning uchun sinf kichik guruhlariga ajratiladi. Guruhlar 3-7 nafar o'quvchidan iborat bo'lishi kerak. O'quvchilar sonini ko'paytirish guruhlarda ishlash jarayonini qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, guruhlar tartibini o'zgartirib turish zarur. Guruhlarda o'g'il va qiz bolalar aralash holda bo'lishi lozim.

Endi interfaol metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz. Interfaol metod ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari – baxs munozaralar o'tkazish o'quv materialini erkin bayon etish mustaqil o'qish, o'rganish seminarlar o'tkazish, kichik guruh katta guruh sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat- dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari savodxonlik darajalari shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar keng qo'llanmoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchi faoliyatini faollashtiradi va jadallashtiradi. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchilarni yangi mavzularni o'zlashtirib olishlariga katta yordam beradi. Bu uslub o'quvchilarni o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, o'quvchilarda atrof – muxitni, hayotni bilishga qiziqish ortadi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish fikrlash hisoblash sinash yasash o'lchash kuzatish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi, mustahkamlaydi.

Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlarning ”Zinama- zina”, “ Lola sayli ”,

Bo'g'irsoqni qutqaring”, “O'yla, izla, top”, ”Qo'riqchini aldap o't”, “Qizil shapkachaga yordam”, “Cho'qqini zabt et”, “Oyga uchamiz”, “Sexrli daraxt”, “Uchar yulduzlar”, “ Bayroqchaga



yeting” kabilaridan foydalanish darslarda ko‘proq muvoffaqiyatga erishiladi. O‘yinlar bu o‘yinlar orqali darsni yaxshi o‘zlashtiradi.

Didaktik o‘yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi. Masalan: ishtirokchi o‘quvchilarni tarkibi bo‘yicha o‘g‘il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o‘yinlar ;

- ishtirokchilarning soni bo‘yicha yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflar aro va ommaviy tarzidagi o‘yinlar;

- o‘yin jarayoni bo‘yicha fikrlash topag‘onlik harakatlarga asoslangan musobaqaga yo‘naltirilgan o‘yinlar o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi.

Ishchanlik o‘yini: darsni - bu mavzu bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishida yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi;

Rolli o‘yini: darsi bu mavzu bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash;

Teatrlashtirilgan dars: dars- mavzu bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlarini tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur aniq ma’lumotlar berish;

Kim ochdi savdosi o‘yini: darsi o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘proq bilishini namoyish etish yana shunday qiziqarli usullardan biri “Klaster” dir.

Bundan biror mavzu yoki matn tanlanib, tinglovchining diqqatini qaratish maqsadida u markaz atrofida joylashtiriladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati:

1. T.G‘afforova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.”Tafakkur” nashriyoti , Toshkent -2011



**МАКТАБДА ТАСВИРИЙ SAN'ATNI O'QITISHDA “HAYOLIIY SAYOHAT”
INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISH.**

Xasanova Sohiba Mamatovna

Angren shahar 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annatotsiya: Milliy tarbiya tizimini shakllantirish, barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda.

Kalit so'zi: tarbiya, tasviriy san'at, pedagogik texnologiya, axborot texnologiya.

Maktab tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi va uni yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish borasida maxsus kuzatuvlar tajribalar va tajribali metodist tasviriy san'at o'qituvchilarining ish tajribalari o'rganilib, ulardan tegishli ilmiy xulosalar chiqarildi.

- tasviriy san'atni pedagogik texnologiyasi – bu tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarga ma'lum davrda va sharoitda san'at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish va bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon deb aytamiz.

Ya'ni o'qituvchini 45 minut dars jarayonida belgilangan, mo'ljallangan maqsadga erishish uchun ta'lim va tarbiya vositalaridan foydalanishning didaktik, metodik va uslubiy jarayonlari majmuasi asosida kafolatlangan natijalarga erishishni ta'minlaydigan pedagogik jarayondir, - desak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktab tasviriy san'atni o'qitishda ham pedagogik texnologiyani “dars texnologiyasi”, “o'qitish texnologiyasi” va “ta'lim texnologiyasi” kabi ko'rinishlaridan foydalanishadi.

“Dars texnologiyasi” – bu 45 minutli tasviriy san'at darsini ko'rilishi, tuzilish va tashkil etilishining umumiy pedagogik tinglovchilarga (didaktik va metodik) javob berishni kafolatlaydigan pedagogik jarayondir. Yani tasviriy san'at o'quv fanining sinf – dars sistemasi bo'lib, yangi bilim berish, berilgan bilim – malakalarni mustahkamlash, aralash dars, bilim – malakalarni tekshirish va nazorat qilish darslari kabilar. Ularning har biri o'ziga hos texnologiyalarda faoliyat yuritadi.

“O'qitish texnologiyasi” – tasviriy san'at va san'atshunoslik fanlarini o'qitish va ular asosida nazariy va amaliy sohalaridan bilim – malakalarni o'zlashtirish yo'li, qoidalari va uslublari majmuasi jarayonidir.

Bu texnologiya ma'lum bir o'quv predmetini o'qitish va o'zlashtirish yo'lini didaktikasi va xususiy metodikasi jarayonni ifoda etadi. SHunga ko'ra o'qitish texnologiyasi tasviriy san'at dars mashg'ulotlarining besh turi bo'yicha o'zgarib ham turadi. Chunki tasviriy san'at dars mashg'ulotlarini o'qitish didaktikasi va uslublari mashg'ulotlaridagi maqsad va vazifalarni o'zgarib turishi bilan uning o'qitish texnologiyasi ham o'zgarib turadi.

“Ma'lumot texnologiyasi” – bu o'quvchilarga ma'lumot berish mazmunida ifodalanib, u o'quvchilarga tasviriy san'at o'quv fanidan bilim – malaka berish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida ilmiy muloqot, munosabat, ijodiy hamkorlik jarayonlari mazmunida ifodalanadi.

Hayoliy sayohat darsi ta'limning bu interfaol usuli tasviriy san'at tarix, geografiya, til adabiyot va boshqa fanlardan qo'llanilishi mumkin. Tarixdan biror davrdagi ma'lum bir davlat tarixiga oid, geografiyadan biror bir tuman, materik, orol, davlat bo'ylab hayoliy sayoxat qilib uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi o'zi mustaqil (ilhom bilan) o'sha joyni chizish yoki yozma tasvirlash kerak. Kimning chizmasi yoki yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u g'olib hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. N.Rostovtsev. O'rta maktab tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. M. 1980 y (rus tilida)
2. R.Hasanov. Narsani o'ziga karab rasm chizish. T. 1968
3. B.Oripov. Tasviriy san'at va chizmachilik kabinet, sinfdan tashqari ishlar. T. 1974 y



ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФЙДАЛАНГАН ХОЛДА ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Лесов Кувондик Сагинович¹, т.ф.н., доцент
Ортиқбоев Муслим Абдукомил ўғли², МТУҒ-2 гуруҳ талабаси

¹Тошкент Давлат Транспорт Университети, Ўзбекистон

²Тошкент Давлат Транспорт Университети, Ўзбекистон

Аннотация: мақолада педагог ходимга қўйилган асосий талаб ва таълим сифатини ошириш учун ахборот технологияларини ўқув жараёнига қўллашнинг самарали усуллари келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: ахборот технологиялари, педагог, техник воситалар, компьютер.

Мамлакатимизда кадрлар тайёрлаш миллий дастурини босқичма-босқич ва муваффақиятли амалга ошириш кўп жиҳатдан ўқитувчи фаолиятини белгилаб бериб унинг касбий нуфузини ошириш билан боғлиқдир. Шундай экан, соғлом ва ҳар томонлама баркамол авлодни етиштириш узлуксиз таълим тизимида меҳнат қилаётган педагогнинг савиясига, тайёргарлигига ва фидойилигига, унинг ёш авлодни ўқитиш ва тарбиялаш ишига бўлган муносабатига боғлиқдир. Ўқитувчи жамиятнинг ижтимоий топшириғини бажаради, ҳар томонлама етук мутахассисларни тайёрлашда ўқитувчи муайян ижтимоий-сиёсий, педагогик ва шахсий талабларга жавоб бериши лозим. Шундай экан, ўқитувчи мустақиллик ҳоясига эътиқодли, ҳар томонлама ривожланган илмий тафаккурга эга, касбига тегишли маълумоти бор, яъни ўз фанининг чуқур билимдони, педагогик мулоқот устаси, педагогик-психологик ва услубий билим ҳамда малакаларни эгаллаган бўлиши ҳамда турли педагогик вазифаларни тезда ечиши, вазиятларни сезиши, ўрганиши ва баҳолай олиши керак. У педагогик таъсир кўрсатишнинг энг мақбул усул ва воситаларини танлай олиш қобилиятига ҳам эга бўлиши лозим. Бундан ташқари ҳар бир педагог кадрлар таълим жараёнида ахборот технологияларини қўллай билиши ва улардан самарали фойдаланишни билиши замоннинг асосий талабларидан бири бўлиб келмоқда [1-2].

Бугунги кунда ахборот технологиялари жамиятимиз ривожланишига таъсир этувчи энг муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Ахборот технологиялари инсоният таракқиётининг турли босқичларида ҳам мавжуд бўлиб, ҳозирги замон ахборотлашган жамиятнинг ўзига хос хусусияти шундаки, ахборот технологиялари барча мавжуд технологиялар, хусусан янги технологиялар орасида етакчи ўрин эгаллаб келмоқда.

Ахборот технологиялари одамларнинг билимларини ривожлантирадиган, уларнинг техника ва ижтимоий жараёнларини бошқариш бўйича имкониятларини кенгайтирадиган маълумотларни ташкил этиш, сақлаш, ишлаб чиқиш, тиклаш, узатиш усуллари ва техник воситаларидир. Ахборот технологиялари маълум бир мақсадга эришиш учун амалга ошириладиган жараёнлар занжиридан иборат яратувчи фаолият тушунилади. Агар технологик занжирни ташкил этувчи жараёнлар, улар орасидаги ахборот алмашинувини ташкил этиш ва улардан фойдаланиш имконияти яратилса, ҳар қандай технологиянинг самарадорлиги ортади. Албатта, бунинг учун мазкур технологияни синчиклаб ўрганиш, жараёнлардаги ва улар ўртасидаги ахборот алмашинувини, шунингдек, жараёнлар занжирини бошқаришнинг ахборот таъминотини таҳлил этиш зарурияти пайдо бўлади [3-4].

Ахборотли таълим жараёни олдиндан педагогик лойиҳалангандагина кўзланган мақсадга эришиш мумкин. Педагогик жараёни компьютерлаштириш асосий йўналишларидан бири ва замонавий педагогик технологияларнинг шуғулланиши лозим бўлган соҳасидир. Ахборот технологиялари таълим жараёнида муҳим ўрин тутиб, қуйидаги вазифаларни ҳал этишга ёрдам беради:

- ҳар бир одамга хос ноёб фазилатлардан иборат индивидуал қобилиятларни ўқитилаётган ўқувчи ва талабаларда очиш, сақлаш ва ривожлантириш, уларда билиш қобилиятларини, ўзини ўзи камолотга етказишга интилишни шакллантириш;
- воқеа ва ҳодисаларни комплекс ўрганишни, аниқ, табиий-илмий, техникавий, ижтимоий, гуманитар фанлар ва санъат орасидаги ўзаро боғлиқликнинг чамбарчаслигини таъминлаш;
- ўқув-тарбия жараёнларининг мазмун, шакл ва методларини доимий тарзда ва динамик равишда янгилашда ёрдам беради.



Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ахборот технологиялари таълим жараёнига қўллаш орқали мураккаб конструкцияли элементларни яни қояли – кўчки жараёнлардан ҳимоялаш иншоотларининг конструкцияларини ўрганиш ва улар тўғрисида таъсавурга эга бўлиш талабалар учун етарли даражада муаммоларни ўрганиб янги таклифлар беришлари ва дарс мобайнида фаол иштирок этишлари яққол кўзга ташланади. Бу эса талабаларнинг сифатли билиб олишларига асос бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Хўжаев Н.Х., Ходиев Б.Ю., Баубекова Г.Д., Тилабова Н.Т. Янги педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2002.
2. Омонов Н.Т., Хаттабов М.Б. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. Тошкент: Молия, 2016.
3. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (талим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар).-Т.: Истеъдод, 2008.-180 б.
4. Мавлонов А., Жавлонов Ш., Абдиева С., Юсупова Л. Педагогик технология тамойиллари асосида дарс машғулотларини олиб бориш технологи яси.-Т.: Ворис, 2010.-112б.



МАКТАБ YOSHIDAGI EGIZAKLARNING O'QISHDAGI KAMCHILIKLARNI KORREKTSIYALASH YO'LLARI

Ubaydullayev Ibrohimjon Orif o'g'li

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani 6 MTT psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada egizaklar psixologiyasining o'ziga xosligi hamda maktab davrida egizaklarning moslashish jarayonidagi nazariy va amaliy jihatlar psixologlar tomonidan o'rganganlik darajasi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zi: xulq-atvor, monozigota, dizigota, nutq, diqqat, tortinchoklik, xafagarchilik jaxldorlik hissiyotlar, qobiliyat.

Annotation. This article discusses the specificity of the psychology of twins and the degree to which psychologists have studied the theoretical and practical aspects of the adaptation process of twins in school.

Keywords: behavior, monozygote, dizygote, speech, attention, shyness, resentment, anger, feelings, ability.

Maktab yoshida egizaklarda ijtimoiy moslashuvning buzilishi bilan bog'liq muammolarga uchraymiz. Maktabda ular nafaqat ota onalariga nisbatan balki bu hamma bolaning muammosi bo'libgina qolmasdan bir birlariga nisbatan ham psixologik va fiziologik mustaqil bo'lishlari kerakligini anglatadi. Buning natijasida egizaklar o'qishning birinchi yilida yomonroq o'qishadi, ammo keyin yaxshi tomonga o'zgaradi. 13 -15 yoshda Dizigota egizaklarda va 16- 18 yoshda monozigotalarda bir xil baho olish tendentsiyasi mavjud. V.V Semenov shuni aytadiki Monozigota egizaklarda bir xil baho olish tendentsiyasi mavjud. Bu paytning o'zida Dizigotalarda bunday tendentsiya yo'q. Bundan tashqari egizaklar juda tez charchashadi, bu diqqatning pasayishi va ishchanlikning pasayishi bilan kuzatiladi. Bu esa keyinchalik o'zlashtirilmaslikka olib keladi. Bolani o'qishni yaxshi o'qiy olmasligini aniqlash uchun avval o'sha bolani o'qish yoki o'qiy olmasligi aniqlash kerak.¹ Avstraliyada o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki egizak bo'lgan o'g'il bolalarning o'qish va yozish qobiliyati yaxshi bo'lmagan yolg'iz tug'ilganlardan quyidagilar asosida farq qiladi. Nutq rivojlanishida ortda qolishadi yoki ortga qolishgan. Ularga yozish ham, o'qish ham hisob kitob ham qiyinchilik tug'diradi. O'qish paytida simetrik harflarni adashtiradi o'xshash holat qizlar o'rtasida ham aniqlandi. Muammo ularning biron bir ishni qilolmaslikda emas, balki bu ishni qilishni xoxlamayotganlikda yoki tezda yengilishida. O'qishda ushlanishi bo'lgan egizaklar ko'pincha ishga ehtiyotsiz muomilaga bo'ladi. Ular vaqtlarni soatga qarab xato aytishgan yoki ikkilik sonlarni hisoblay olishmagan. Ularning qobiliyatini rivojlantirishdagi asosiy masala bu ularni savollarga o'ylab turib javob berishga o'rgatishdir. Bu asosiy muammolarni hal qilgandan keyin o'qishni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni uyushtirish mumkin. Ayrmlar hisoblashadiki egizaklarning o'qishni yaxshi bilmaslik bu ularning lateralizatsiyasining yaxshi rivojlanmaganligi bilan bog'liq ya'ni ikkita qo'lning ishlata olishi faqat bitta qo'lini emas. Egizaklar orasida chapaqaylar yoki bittasi o'ng qo'l ikkinchisi chapaqaylar shuning uchun buni o'qishdagi buzilishga ag'darish oson. Avstraliyada o'tkazilgan natijalar shuni ko'rsatadiki egizaklar orasida chapaqaylik ularning o'qishlari bilan bog'liq emas ekan. Bu shuni anglatmaydiki egizaklar orasidagi lateralizatsiya o'qishdagi o'zgarishlarga ta'sir etmaydi. Avstraliya va B.Britaniya maktablarida egizaklarning o'zlashtirish darajasi haqida so'rovlar o'tkazilgan. Avstraliyada keng so'rovlar o'tkazilgan. 10 yoshli o'g'il bola egizaklar yolg'iz tug'ilgan tengqurlaridan o'qish va yozishda jiddiy ortga qolar ekanlar, kamroq ortga qolish esa qiz bola egizaklarda quzatilar ekan. 14 yoshda esa qiz bolalar o'g'il bolalardan tashqari o'z tengqurlarini yolg'iz tug'ilganlarga yetib olisharkan. 70% dan ko'proq qizlar o'sha yoshda avstraliya jamiyatida yashab qolish uchun yetarli o'qish va yozish qobiliyatiga ega bo'larkan. O'g'il bolalarda bu ko'rsatgich 40% tashkil qilgan ekan. Alohida uzoq bo'lmagan egizaklar bilan alohida shug'ullanish samaliroq uzoqroq egizaklarning ikkalasi bilan barobar shug'ullanishdan ko'ra.² Bu shuni anglatadiki biron bir kishi qolgan bolalar bilan shug'ullanish kerak. Ayrim oilalar bunga yechim topishadi ota ona har bir

1 Сергиенко Е.А., Рязанова Т.Б., Виленская Г.А., Дозорцева А.В., Развитие близнецов и особенности их воспитания, М.: Институт психологии РАН, 2000.

2 Зырянова Н.М. Близнецы. – М., 2006.



egizak bilan alohida shug'ullanishadi. Hattoki boshqa qarindoshlarni ham yordamga chaqirishadi. Bunday vaziyatlarda ehtiyotkor bo'lish kerak.

O'qishni rivojlantirish muammosi egizaklarning o'zlariga baho berishlariga ta'sir qiladi. Boshlang'ich maktabdagi o'qish egizaklarning atrovdagilar bilan bir birlari bilan musobaqalashiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, odatda maktab o'quvchilari uy vazifasi uchun haftasiga 130 soat sarflaydilar lekin egizaklar oilasida bu soatlar o'sishi mumkin. Ko'pchilik egizagi bor ota onalar uy vazifalarni bajarish jarayonlarida o'zlaridan nimalarnidir qo'shib bajarishmoqda. O'qishni rivojlantirish muammosi egizaklarning o'zlariga baho berishlariga ta'sir qiladi. Boshlang'ich maktabdagi o'qish egizaklarning atrovdagilar bilan bir birlari bilan musobaqalashiga turtki bo'ladi. Bunda ular bir sinfda o'qiydimi yoqmi ahamiyati yo'q. Agar egizaklarning biri yaxshi o'qisa buni hamma ko'radi. Lekin o'qish musobaqaga asos bo'lmasligi kerak. Egizaklar tushunishlari kerakki ular o'qishni o'rganar ekan yangi ma'lumotlar olish uchun o'zini egizagiga ko'p o'qish bo'yicha uchib ketish uchun emas. Bolada yaxshi o'qish qobiliyatini rivojlantirish keyin ish 'isoblanadi. O'qishni yaxshi bilmaydigan bolalar oson tushkunlikka tushishadi. Ular o'zlarining o'qish uslubini va rivojlanish tezliklarini baholashni o'rganishlari kerak. boshqalarni o'zlariga tenglashtirishdan ko'ra.

Egizaklarning psixologik asoslarini bilish zarur, ayniksa, bir tuxumli va xar xil tuxumli egizaklarni ajrata olish kerak. Agar egizaklar paralel sinfda o'qisalar unda o'qituvchilar ularning o'kishiga ketma-ket karashlari kerak. Agar egizaklardan biri boshqa sinfda bo'lsa unda o'qituvchi o'zining diqqatini bir joyga jamlashi kerak. O'kishni endi boshlagan o'quvchi egizaklar tortinchoklik, xafagarchilik jaxldorlik hissiyotlarini xis kilishadi. Ko'p o'qituvchilar bolalarni bir birlariga yordam berishlarini yukori baholashadi. Egizak farzandni dunyoga keltirgan ba'zi ota onalarning kuzatuvlariga ko'ra tushlik kilayotgan paytda egizaklar oshxonada dars qilishsa ularning o'zlarini tutishlarini va uy vazifasiga bo'lgan munosabatlarini shunday izoxlashdi: Bir egizak uy vazifasini bajarsayu ikkinchisi uni ko'chirsa bu ikkalasiga xam foyda keltirmasligi mumkin. Ammo bir biriga yordam berish usuli musobaqalashishni kamaytirishga imkon berishi mumkin. Mabodo bir egizak ikkinchi egizakning qo'shish va ko'paytirish vazifasiga yordam bersa ikkinchi egizakning matematikadan olgan yaxshi bahosi uchun xursand bo'lib yuradi. Tajribalar natijalari shuni ko'rsatyaptiki, odatda maktab o'quvchilari uy vazifasi uchun haftasiga 130 soat sarflasalar, egizaklar oilasida bu soatlar o'sishi mumkin. Chunki egizak farzandi bor ota onalar farzandlari uchun beriladigan uy vazifasi muammosini o'zlari bir narsalarni uylab topib xal kilishlari kerak bo'ladi. Egizaklarni biz ko'pincha bir fanga qiziqishadi deb uylaymiz. Birok maktablarda o'tkazilgan so'rovlar natijasida kuyidagi xulosaga keldik yani egizaklardan biri matematika fanidan yaxshi o'zlashtirsa sherigi esa buning aksi. Egizaklar tasviri san'atga shariyatga bazilari esa texnika sohalarida qiziqishadi. Bu ularning tabiatlariga bog'lik. Monozigotali egizaklarning aksariyati bir faoliyat bilan doimiy shug'ullana olmaydilar. Dizigotali egizaklar esa aloxida faoliyatda bo'la turib uzok vakt davom etishini ko'rishimiz mumkin. Egizaklar kurashayotganda oraga ko'shilish vaziyatni chigallashtirishi mumkin. Ko'pchilik munosabatlarda ikkita tomon bo'ladi biri karor kabul kiladi ikkinchisi unga jon deb rozi bo'ladi va unga ergashadi. Egizaklarda shunday ko'prok biri kuchli va talabchan bo'ladi ikkinchisi yumshok va xotirjam buladi. Agarda yon bosuvchi egizak o'zining shaxsiy karorlarini kabul kila olsa bu hakida xavotirlanmaslik kerak. O'qituvchilar egizaklarning birini ikkinchi yilga koldirish yoki bir sinfga ko'tarish yo guruh sardori kilish masalasiga juda extiyotkorlik bilan yondashishlari kerak. Bunday xolatlarda egizaklarning ijtimoiy - psixologik bog'liklarini bilish kerak. Egizak o'smirlarda munosabatlari o'rtasida muammolar yuzaga kelishi mumkin chunki xar biri o'zini topish uchun va uni tan olishlari uchun xarakat kiladi. Monozigota va Dizigotali egizaklari o'rtasidagi munosabatlar har xil xuddi bir jinsli va xar xil jinsli egizaklar o'rtasida singari. Ko'pchilik egizaklarga yordam kerak bo'lmasa ham, egizaklar o'rtasida ko'zga ko'rinadigan farq bo'lsa, ularga albatta yordam berish kerak. Egizaklar o'z paytida yordam ololmayotganligiga o'qituvchi va ota onalar amin bo'lishlari kerak; Maktabda egizaklarning bir biriga qattiq bog'liqligini hurmat kilishlari kerak va albatta har biriga buyuk kobiliyat rivojlanishi uchun sharoit yaratish kerak.

.



Foydalangan adabiyot ro'yxati

1. Зырянова Н.М. Близнецы. – М., 2006.
2. Сергиенко Е.А., Рязанова Т.Б., Виленская Г.А., Дозорцева А.В., Развитие близнецов и особенности их воспитания, М.: Институт психологии РАН, 2000.
3. Тойирова Ш. И., Тойирова Л. И. Психологическая роль геронтологии в республике Узбекистан //Инклюзивное образование и психолого-педагогическое сопровождение лиц с ОВЗ и инвалидов: от раннего возраста до профессиональной подготовки. Региональные практики и модели. – 2020. – С. 202-205.
4. Тойирова Ш. Ўзбек оилаларда эгизак фарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психологик муаммолар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 122-125.



MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA KUZATISHNING AHAMIYATI

Marxabayeva Mavluda Abdullayevna
O'rtachirchiq tumanidagi 65-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fanini kuzatish metodi yordamida tadqiq qilish imkonini beradi. Matematik kuzatishlarning muhim omillarini o'rganishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: O'qitish jarayoni, kuzatish, tajriba, analiz metodi, sintez metodi.

Har bir inson o'zi yashab turgan atrof muhitni kuzatadi va tabiatda yuz berayotgan qonuniyatlar, o'zgarishlarni sezadi va sezish orqali tafakkur qiladi. Ta'rif jamiyatda, tabiatda sodir bo'layotgan ayrim obyektlarning, vaqiylikning munosabatlari, xossalari tabiiy xolatidagi belgilarini ko'rinishlarini, sodir bo'lishlarini o'rganish metodiga kuzatish deyiladi. Kuzatish o'zini strukturasi bo'yicha qabul qilishdan keskin farq qiladi. Chunki qabul qilishda bizni sezgi organlarimizga ta'sir etishi natijasida biz shu voqeylikni ongimizda tasvirini ko'ramiz va qabul qilamiz. Kuzatishda bu jarayon sodir bo'ladi lekin u tamom bo'lmaydi davom etadi u shu bilan ham farq qiladi. Matematikani o'qitish jarayonida biz ayrim yuzalarni hisoblashda amallarni bajarishda avval uni kuzatamiz, so'ngra umumlashtirishga xarakat qilamiz.

Tajriba – bu shunday o'rganish metodini biz tabiiy holatga sun'iy sharoit yaratish orqali aralashamiz, so'ngra sun'iy ravishda bo'laklarga ajratamiz so'ngra uni boshqa obyektlar bilan bog'laymiz yoki taqqoslaymiz. Natijada tajriba orttiramiz. Kuzatish esa bevosita tajriba orttirishni yo'li uslubi sifatida ham qatnashadi. Masalan biz o'quvchiga yangi mavzuni tushuntirgandan so'nga uni qanday tushunganini bilish maqsadida kuzatamiz va tushunmagan momentlarini aniqlaymiz va o'zimizga tajriba to'playmiz. Ma'lumki, kuzatish va tajriba metodi matematika o'qitishda markaziy metodlardan bo'lmasa ham matematikani o'rganishda va unda qonuniyatlarini ochishda muhim ahamiyatga egadir. Matematikani o'qitishda analiz va sintez metodi juda ko'p metodlardan iborat bo'lib u masala va misollarni yechishda teoremlarni isbotlashda juda muhim ahamiyatga egadir. Analiz – bu fikrlashni butunlikdan bo'laklarga olib o'tuvchi metoddir, boshqacha qilib aytganda fikrlashni noma'lumdan ma'lumga olib o'tish jarayoniga analiz deb aytilishini qayd qilish mumkin.

Analiz va sintez metodlari masala va misollarni yechishda juda muhim ahamiyatga egadir, chunki bu metodlar ayniqsa masalalarni yechish rejasini tuzishda katta yordam beradi. Ayrim psixologlarni fikriga qaraganda analiz yoki sintez alohida ideal holatda uchramaydi, chunki fikrlash jarayonida inson u sintez qilsa unga analizga suyanagan holda yoki analiz qilsa sintezga suyanagan holda amalga oshiradi. Shuning uchun S.L. Rubenshteyn fikriga analiz sintez orqali amalga oshirilishi qayd qilinadi, ya'ni a) analiz «filtr» sifatida b) analizni sintez orqali amalga oshishi yoki sintez orqali analiz qilish.

A) Analiz «filtr» sifatida – bunda inson xar bir narsani «taxmin»Larga suyanib ya'ni hal qilish yo'llarini izlaydi va shu izlanish jarayonida xaqiqatga to'g'ri kelmaydiganlarni chiqarib tashlaydi va oqibat natijada maqsadga erishadi.

B) Sintez orqali analiz – bunda fikrlash jarayonida inson tafakkuri yangi-yangi ma'lumotlari bilan bog'lanadi va buning natijasida tafakkurlarning yangi sifatlarini kashf qiladi, yangi mazmun yangi xissalarni yoki ularning boshqa tomonlarini qarashga unda o'ziga yangi xulosalarni chiqarishga o'rganadi. Buning natijasida tafakkur o'zining yangi sifatlarini namoyon qiladi va o'zi bilan yangi bilim ko'nikma va malakalarni tashishga xarakat qiladi.

Analiz va sintez metodlarini masala va misollarni yechishda teoremlarni isbotlashda muhim ahamiyatga egaligini ko'rish mumkin. Bunda fikrlash qandaydir rostligi bir qiymatlik moslikda oldindan hal qilingan fikrlarga tayangan holda amalga oshirilishi tushuniladi. Bunday analiz metodi fikrlash jarayonida doimo qiyoslanishga asoslanuvchi taqqoslanishga suyanuvchi fikrlarning uzluksiz zanjirini eslatadi va shu asosda qo'yilgan maqsadga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonova.G.A "Pedagogik mahorat" T: Nizomiy nomidagi TDPU-2005
2. WWW.google.couz qidiruv sayti.



QO'SHIQ KUYLASH JARAYONIDA 5-SINF O'QUVCHILARINING VOKAL-XOR MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Raxmonberdiyeva Surayyo Mirg'aniyevna

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi.

Telefon: +998946089410

raxmonberdiyevasurayyo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarida 5-sinf o'quvchilarning qo'shiq kuylash jarayonida vokal-xor malakalari ustida olib boriladigan ishlar va ularni takomillashtirishning o'ziga xos usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kuylash, tayanch-ta'lim, vokal-xor, unison, tersiya, temp, qo'shiq, talaffuz, qobiliyat, diapazon, ifoda vositalari.

5-sinfda tayanch-ta'lim bosqichi boshlanadi. 5-sinfda o'quvchilar psixologik tomondan ancha o'zgargan bo'ladi. Ularning hayotiy tajribalari boyigan, konkret fanlarni o'rganish jarayonida ilmiy dunyoqarashlari tarkib topayotgan davr bilan farq qiladi. Fikrlash bir muncha rivojlanganligi sababli, ko'rgazmali idrokdan ko'ra so'z orqali mantiqiy idrok qobiliyatlari rivojlana boshlandi. Shunga muvofiq o'rganiladigan asarlar ham janr, hajm va badiiy mazmun jihatidan tobora jiddiylashib boradi. Ovoz diapazoni (Do1 - Mi 2) ma'lum miqdorda rivojlangan bo'ladi. 5-sinf o'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi, bu malakalar ashulaning to'g'ri va ta'sirli aytilishini ta'minlaydi, bolalar ovozining yaxshilanishiga va parvarish qilinishiga yordam beradi. Vokal-xor mashqlari sifatida xalq kuyi va qo'shiqlaridan parchalar kuylash va shu vosita bilan milliy musiqa ohanglari xususiyatlarini bolalar hissiyotiga singdirib borish maqsadga muvofidir.

O'qituvchi o'zi qo'shiqni ifodali qilib kuylab berishi va o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyatlarini o'stirish kerak:

1. Sof unisonga erishishi
2. Musiqiy jumlaning boshidan oxirigacha to'la idrok etishi,
3. Notaga qarab kuylash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

O'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab, nixoyatda oddiy mashqlardan, qo'shiq naqoratlari-dan, kuylash uchun qulay bo'lgan lادلardan boshlash masadga muvofiqdir. Eng oddiy va murakkab mashqlarni ham, asosan solfedjio qilish yo'li bilan o'rganish va kuylash lozim, chunki bu jarayonda notalarni nomlari va balandligi holatini ham anglab boriladi. Ikki ovozlikda kuylashni boshlashdan oldin, sinf taxtasida yoki plakatlarida ko'rsatib notalar nomini va tovushning balandlik holatini aniqlab, ovoz chiqarib bir necha marta takrorlab so'ng, kuylash zarur. Dastlab katta tersiya, sof kvarta, sof kvinta, katta seksta singari ohangdosh intervallar, mashqlar uchun asos bo'la oladi. Chunki, bu intervallar kuylash uchun qulay yoqimli va o'quvchilar xotirasida saqlanishi oson. Intervallar faqat ikki ovozda kuylanmasdan, balki tinglash uchun ijro etib, ularda yuqori va pastki tovushni aniqlashni topshirish lozim. Bunday savollar o'quvchilarni garmonik o'quvini kuchaytiradi, intervallarni ongli ravishda o'zlashtirish tuyg'usi paydo bo'ladi. Ikki ovozlik qo'shiqlarni kuylash uchun, kichik ohanglardan boshlab kattaroq hajmdagi jo'rsiz (akapella) asarlarga o'tish, o'quvchilarni bir-birini diqqat bilan eshitib, kuylash qobiliyatlarini o'stiradi. Ikki ovozli qo'shiqlarni tanlaganda, ikki ovozli elementi bor, kichik xajmdagi asarlar masadga muvofiqdir. Har qaysi ovozning ohangi aniq ravshan, mustaqil bo'lishi kerak. Pastki ovoz kuyi shirali, xushohang, yaxshi esda qoladigan bo'lishi ayniqsa muhimdir. Ovoz partiyalarining diapazoni, seksta septima oktavalar hajmidan oshmaydigan qo'shiqlar aytishga ayniqsa qulaydir.

Qo'shiqlar o'rtacha tempda yozilgan bo'lishi kuylash uchun foydali va osondir. Ikki ovozli qo'shiqlarni ohanglari ijro jihatidan shakli yengil va oson bo'lishi kerak. O'zbek xalq qo'shiqlarni o'qituvchi ikki ovozlik qilib, qayta ishlab o'rgatishi o'quvchilarni talaffuzi intonatsiyasi va xotirasini rivojlantiradi. Ikki ovozlikni kuylashda, bir ovozni cho'zib, ikkinchi ovoz harakatlanishi ham, bolalarni eshitish qobiliyatlarini o'stiradi. Keyinchalik esa, ovozlarni parallel bir tomonga yo'nalishi, ovozlarni qarama-qarshi yo'nalishi va har xil murakkabroq holatida ham kuylash mumkin bo'ladi. Musiqa darsida ikki ovozda kuylash uchun bolalar ovozini diskant va altga bo'lish shart emas, balki taxminiy bo'lishi ham mumkin. Chunki ikkinchi, uchinchi ovozni kuylaganda bolalarni musiqa o'quvi ko'proq o'sadi. Shuning uchun ovozlarni galma-gal almashtirib kuylatish lozim.



Buning uchun albalta dastlab, sof unisonga erishiladi. Soʻngra, ikki ovozli asarlarga oʻtiladi. Beshinchi sinf bolalarning ovozlari yangroq ovoz apparatlari shakllangan, koʻnikma va malaka ega boʻlganligi sababli ikki ovozli qoʻshiqlarni oʻrgatish maqsadga muvofiqdir.

Bu davrda psixologik-fiziologik jihatdan organizmda faol oʻzgarishlar roʻy beradi. Boʻyining oʻsishi, ovozining oʻzgara borishi fanlarga qiziqishi, mustaqil fikr yurita olishi, qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada bosh miya yetarli darajada ozuqa olmay, horgʻinlik holatlari roʻy beradi. Bu davrda oʻqituvchi ularga jiddiy munosabatda boʻlishi talab etiladi.

Quyidagi diapazondagi bir va ikki ovozli ashulalarni aytish: Birinchi ovoz Do1 Mi 2 (Fa 2), ikkinchi ovoz Si kich (Lya kich) Do2(Re 2) musiqa oʻquvini oʻstirish, ovozni parvarish qilish va vokal-xor malakalarini hosil etishda maxsus vokal mashqlari, yaʼni uch tovushli, past bosich yoki yuqori bosichdagi tovushlar orasida va uning kvinta yoki oktava miqyosidagi ismlarida ashula aytib, bir ovozda asosan, yallalar yoki qoʻshiqlardan parchalar aytib, «Ovozni maromga solish» katta ahamiyatga egadir. Notaga qarab ashula aytish malakasi ham shu xilda qilish yoʻli bilan hosil etiladi. Bu xildagi mashqlar uchun har darsda 3-6 minut vaqt ajratiladi.

Xulosa qilib shubni aytish mumkinki musiqa madaniyati darslarida oʻquvchilarning vokal-xor malakalari ustida olib boriladigan ishlar jarayonni tashkil etishda yuqoridagi tavsiya etiladigan yoʻnalishlarni eʼtiborga olish, oʻquvchilarning musiqa madaniyati darsiga boʻlgan qiziqishini oshirishga shuningdek bu malakalarni takomillashtirishga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soipova D.Yu. Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni oʻzlashtirish jarayonini takomillashtirish. Oʻquv qoʻllanma T.: 2005-yil
2. Xasanov A.Sh. Musiqa va tarbiya . –T.: Oʻqituvchi, 1993y.
3. R.G.Qodirov. Musiqa psixologiyasi. “Musiqa” nashriyoti, T., “2005y.
4. G.Sharipova. Musiqa oʻqitish metodikasi. “Musiqa” nashriyoti,- T., 2014y



ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ ВУЗА.

Якунина Ангелина Алишеровна

Студент-магистрант 1 курса Гулистанского
государственного университета
yakuninaangelina1@gmail.com

Аннотация: в данной статье рассматриваются современные тенденции в информационной эпохе образования, которые возможны для применения в учебном процессе. Отмечается, что информационные технологии в образовательном процессе раскрывают творческие способности студентов в процессе обучения. В статье раскрыто понятие информационных технологий с позиций отечественных ученых и дана наша оценка понятия данного определения.

Ключевые слова: технологии, инновации, методика, словари, web – квест, электронные лекции, обучение, онлайн тесты, ИКТ, тесты на компьютере, ГГУ.

Стремительные изменения и развитие, происходящие во всех сферах общества, а также в нынешнем цифровизационном и информационном обществе, утверждают новые, всевозможные взгляды и методы в современном образовании. В результате чего, к системе образования выдвигают важные требования: она должна готовить студентов к «свободному плаванию» в стремительно развивающемся обществе, воспитывать патриотизм, силу духа, а также быть самостоятельной личностью. [1;28-30]

Под **технологией** (греч. *techne* «искусство», «мастерство», *logos* «слово», «знание» - наука об искусстве) понимается совокупность методов и процессов, применяемых в каком-либо деле или в производстве чего-либо.

Понятие **«инновация»** в переводе с латинского языка «обновление, новшество или изменение». Если говорить о педагогике, то педагогическая инновация обозначает введение новизны в содержание, цели, задачи, формы и методы воспитания и обучения, организацию общей деятельности учащегося и учителя. [3, с. 92].

Исходя из этого, главной задачей инновационной технологии означает выявления совокупности закономерностей с задачей установления и применения на практике наиболее последовательных, результативных образовательных действий, настаивающих на наименьшее затрат времени, интеллектуальных и материальных ресурсов для достижения требуемого результата.

Используемые методы работают не так эффективно применительно к новому поколению студентов. Ведь традиционное обучение не исходит из своеобразных качеств студента и необходимости творческого роста, как в лице будущего педагога – филолога. Ряд проблем, которые возникают во время обучения порой невозможно решить старыми способами и в этом случае возникают затруднения, но с введением новшеств, то есть применение инновационных методов обучения, преподаватель может не только оказать помощь в решении возникшей проблемы, но и помочь своим воспитанникам эффективно усваивать материал и развить их творческий потенциал.

На нашем факультете в особенности распространены такие новшества в процессе обучения как:

- информационно-коммуникационные технологии (ИКТ);
- проектная и исследовательская деятельность;
- личностно-ориентированное обучение.

ИКТ предполагает **интегрирование преподаваемой дисциплины с информатикой, а также компьютеризацию оценивания и коммуникации в целом**. На любых этапах учебного процесса обучающийся может использовать компьютер. Благодаря существованию электронных учебных пособий студенты могут одновременно обучаться работе с основными программами и усваивать учебный материал. В дальнейшем студенты используя компьютер и проектор могут изложить учебный материал. Видео, презентации, диаграммы и аудио- файлы благодаря наглядности способствуют лучшему усвоению темы. Самостоятельное создание слайдов, схем, карт памяти помогает структурировать знания, что также



помогает в запоминании.

Наличие компьютера, интернета и специальных программ делает возможным **дистанционное преподавание, онлайн-экскурсии, конференции и консультации**, которые осуществляются преподавателями нашего вуза. В конце изучения темы в качестве контроля могут быть использованы **тесты на компьютере**, которые выставляются в портал ГГУ, где можно отследить результаты отдельного студента в режиме реального времени.

Важно научить студентов правильно использовать интернет, поисковые системы и социальные сети. При грамотном подходе они становятся неисчерпаемым источником информации и способом к коммуникации студентов с преподавателем и между собой. Благодаря используемым интерактивным методам, происходит эффективное усвоение знаний в сотрудничестве с другими учащимися. Эти методы принадлежат к коллективным формам обучения, во время которых над изучаемым материалом работает группа учащихся, при этом каждый из них несет ответственность за проделанную работу.

Список использованной литературы :

1. Дебердеева Т.Х. Новые ценности образования в условиях информационного общества. — 2005. — № 3. — С. 79.
2. Сластенин В.А. Педагогика: инновационная деятельность М.: «Издательство Магистр», 1997. — 456 с.
3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. — М.: Народное образование, — 1998. — 256 с.



**“FIZIKA FANINI O’QITISH SIFAT-SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI”.**

Qosimova Gulhayo Bazarovna

Surxondaryo viloyati, Jarqo’rg’on tumani

35-sonli umumta’lim maktabi

fizika fani o’qituvchisi.

Telefon: +998(94)-425-25-74

Gulhayo90@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining 9-sinf fizika fanida ba’zi mavzularni o’qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanib o’qitish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: Innovatsion texnologiya, fizik formula, “Sehrli uchburchak”, “Tushunchalar taxlili”, PISA xalqaro baholash dasturi, bilim va ko’nikma.

So’ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o’sish ko’rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo’lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o’z-o’zidan o’quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o’qituvchilarning har tomonlama ta’lim-tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

O’zbekiston 2022-yilda PISA xalqaro baholash dasturida ishtirok etishi ko’zda tutilmoqda. O’zbekiston xalqaro baholash dasturlarida ishtiroki orqali o’quvchilarimizda XXI asr ko’nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratishdir.

Xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlariga tayyorgarlik ko’rish va munosib ishtirok etish yuzasidan kelgusi vazifalardan biri sifatida o’qish (ona tili), matematika va tabiiy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlardan samarali foydalanish nazarda tutilgan. Qolaversa, hozirgi zamon darsiga qo’yiladigan eng muhim talab pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga olib kirish, har bir mavzuni ilmiy asoslash, o’quvchi imkoniyatini hisobga olgan holda material hajmini baholash, uning murakkabligini aniqlash, avvalgi o’rganilgan material bilan bog’lash, o’quvchilarga beriladigan topshiriqlar va ularning mustaqil ishlar tizimini aniqlash, darsning moddiy texnik jihozini belgilash va qo’shimcha ko’rgazmali qurollar bilan boyitish, qo’shimcha axborot vositalaridan (kompyuter) foydalanish va darsda muammoli vaziyatni vujudga keltirishdan iboratdir.

Hozirgi zamon darsiga qo’yiladigan eng muhim talablardan yana biri ta’lim usullari va innovatsion texnologiyalarni bir-biri bilan mustahkam bog’lab olib borish samaradorligini oshirishdir.

Dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o’quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga, faol bo’lishga, tashkilotchilik va yo’naltiruvchanlikga undaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha muassasalarida o’qitiladigan fanlar ichida fizika o’ziga xos o’rin tutadi, chunki bu fan o’quvchilarda olamning fizik manzarasi haqida tasavvur hosil qiladi.

Umumta’lim maktablarida o’quvchilarning fizika faniga bo’lgan qiziqishlarini orttirish yo’llaridan biri fizika darsida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishdir. Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki 50-60 % o’quvchilar fizik tushunchalarni osongina qabul qilolmaydilar.

Umumta’lim maktablari fizika fani 9-sinf o’quv dasturida berilgan mavzularga doir pedagogik texnologiyalardan namunalar keltirib o’tamiz. Fizika o’qituvchisi dars jarayonida o’quvchining qiziqishini orttirish uchun pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishi maqsadga muvofiq.

Qolaversa, 9-sinf fizika darsligida mavzuga oid fizik formulalarni keltirib chiqarish ko’nikmalari shakllantiriladi. Bunda matematikani bilgan o’quvchi uchun bu jarayon qiyinchilik tug’dirmaydi. Zero, buyuk italyan fizigi Galileo Galiley shunday deb yozgan edi: “Tabiat kitobini tushunish uchun uning yozilgan tilini bilishing kerak. Bu til – matematikadir”.

Fizik formulalarni keltirib chiqarishda “Sehrli uchburchak” pedagogik texnologiyasidan foydalanish yuqori samara beradi. Masalan:



“Sehrli uchburchak”
Sirt taranglik mavzusidagi F , δ , ℓ larni hisoblash
formulalarini yodda saqlash

Yodda tuting!

Berilgan fizik kattaliklardan formulalar keltirib chiqarish orqali o'z ustida mustaqil ishlash, rivojlantirish, amaliyotda foydalana olish bilan o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiya elementlari shakllanadi

Ushbu pedagogik texnologiyani bajarish orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalar shakllanadi.

9-sinf o'quvchilarining o'tilgan mavzularni mustahkamlashda “Tushunchalar tahlili” pedagogik texnologiyasidan foydalanish yuqori samara beradi.

“Tushunchalar taxlili”

Tushunchalar	Mazmuni
$PV = \text{const}$	Boyl-Mariott qonuni. Temperaturasi o'zgarmas bo'lgan jarayon izotermik jarayon deb ataladi ($T = \text{const}$).
$V/T = \text{const}$	
$P/T = \text{const}$	

O'quvchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka guruhlarda ishlay olish, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatish orqali o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasi elementlari shakllanadi

Fizika darslarida o'tkaziladigan har qanday pedagogik texnologiya katta ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish natijasida o'quvchilarning berilgan mavzu, undagi fizik qonun va formulalarning mazmun hamda ma'nolari bo'yicha olgan bilimlari mustahkamlanadi. Mantiqiy fikrlash va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarimizning ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida munosib ishtiroki uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. P.Habibullayev, A.Boydadeyev va boshqalar. 9-sinf “Fizika darsligi”. T. 2019
2. Kamoldinov M., Vahobjonov B. “Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari”. T. 2010.

Elektron ta'lim resurslari.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish, Davlat inspeksiyasi <http://tdi.uz> sayti.



ЮСУФ ХОС ҲОЖИБНИНГ “ҚУТАДҒУ БИЛИГ” ДОСТОНИ МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ТАРБИЯ ВОСИТАСИ СИФАТИДА

Аматохунова Дилбархон Шукуровна,
Андижон вилояти, Андижон тумани
16-умумий ўрта таълим мактаби она тили ва
адабиёт фани ўқитувчиси,
тел:+998339716763

Аннотация. Мақолада Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асарининг бугунги кундаги тарбиявий, маърифий аҳамияти мисоллар ёрдамида тушунтирилган.

Калит сўзлар. “Қутадғу билиг”, “Саодатга йўлловчи билим”, Секантир-Сатурн, Ўнгай-Юпитер, Кўруд-Марс, Яшиқ-Қуёш, Савит-Зухра, Орзу-Меркурий, Ялчик-Ой, ўн икки бурж.

Маънавият биз билан аجدодларни боғлаб турувчи олтин куприк. Адабий-бадий мерос эса ана шу олтин кўприkning мустаҳкам таянчлари, устунлари. Буни биз аجدодларимиздан мерос сифатида қолдирилган ҳад-ҳисобсиз, қимматбаҳо маънавий ва маданий мерослар мисолида ҳам кўришимиз мумкин. Маданиятимиз, маънавиятимиз сарчашмалари ҳисобланган асарлар қаторида Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари бир неча юз йиллардан буён авлодларга умр мазмунидан сабоқ бериб, қалбларга зиё бағишлаб келмоқда.

“Қутадғу билиг” – ахлоқий – таълимий асар. Асарнинг фақаигина одоб-ахлоқ масалаларига бағишланган бобларидагина эмас, балки бошқа масалаларга бағишланган қисмларида ҳам муаллиф ўз ахлоқий-таълимий, маънавий-маърифий қарашларини ифодалайди. Юсуф Хос Ҳожиб ўз даврининг донишманди сифатида илм-маърифатни саодат, бахтли ҳаёт қалити деб билади. Шу боисдан бўлса керак асарини “Қутадғу билиг” яъни “Саодатга йўлловчи билим” деб номлайди ва унда маърифатни тарғиб қилади, ўқимишли кишиларни, олиму фозилларни улуғлайди, ҳукмдорларни эса илм аҳлини саройга жалб этиб, уларнинг маслаҳатлари билан иш кўришга ундайди. Адибнинг фикрича ҳукмдор давлатни ўз сиёсати билан бошқарса, олимлар эл-юртни ақл билан бошқарадилар, уларнинг илми умримиз йўлини ёритувчи, ҳаётимизни нурафшон қилгувчи нурдир. Илм-нур, олимлар машғалдорлардир.

*Улар илми бўлди будунқа йўла,
Ёруса йўла тунла озмас йўл-а.*

Яъни, уларнинг (олимларнинг) илми халққа машғала бўлди, бу машғала ёришса халқ ҳатто тунда ҳам тўғри йўлдан адашмайди.

Куйидаги парчада эса адиб олимларни ҳурмат қилиш баробарида уларнинг билимларини ўзлаштириш ҳам ҳар бир киши учун шарт эканлигини уқтиради:

*Улар қатиг сав, оғурла сўзни,
Билиглари ўгран, ўқуш ё изин.*

Юсуф Хос Ҳожибнинг фикрича маърифатпарвар давлат бошлиқларигина мамлакат ишларини бошқаришга, эл-юртининг орзу-истакларини амалга оширишга қодирдирлар. Алломанинг бу фикрлари бугунги кунда ёшларнинг илм чуққиларини эгаллашлари ва олган билимларини Ватан манфаати, эл-юрт фаровонлиги йўлида сарф этишга бел боғлаганликлари билан ҳамоҳангдир.

Достон маърифий жиҳатдан ҳам бениҳоя қадрлидир. Унда Ўрта Осиё олимларининг илмий ютуқлари ва маълум даражада акс этган бўлиб, астрономия ва тиббиётга оид кўплаб мулоҳазалар юритилади. Асарнинг кириш қисмида муаллиф етти сайёра, яъни Секантир-Сатурн, Ўнгай-Юпитер, Кўруд-Марс, Яшиқ-Қуёш, Савит-Зухра, Орзу-Меркурий, Ялчик-Ой ҳамда ўн икки бурж ҳақида алоҳида-алоҳида шеърый парчалар ёзади.

Булардан ташқари достондаги ахлоқий ранд-насихатлар ёш авлодга тил одоби, севги ва садоқат, ҳалоллик ва ростгўйликдан сабоқ бериб, уларни баркамоллик сари етаклайди. Муаллиф шоир, ижодкор сифатида сўзнинг кадр-қиммати ва таъсир кучини алоҳида эҳтиром билан таърифлайди:

*Қумуш қолса олтун манинг санга,
Они тутмагил сан бу, сўз тенг-а:
Қумуш ишга тутса, тугар олқинур,
Сўзум ишга тушса, қумуш қизгонур.*



Яъни, мендан сенга кумуш ва олтин қолса уларни сен сўз билан тенг кўрмагин, менинг сўзларим, ўғитларим олтинданда, кумушданда қимматлироқ ва қадрлироқдир. Чунки, олтин, кумушни сарфласанг бир куни тугайди, бироқ менинг панд-насихатларимдан фойдалансанг, уларга амал қилсанг сен учун битмас бойлик келтиради.

Мухтасар, қилибайтганда, ХІ асрнинг донишманди ва давлат арбоби Юсуф Хос Ҳожибнинг илм-фанни, инсонни, адолатни, яхши сўзни, меҳнатни улуғловчи, адолатсизликларнинг ва жаҳолатнинг ҳар қандай кўринишини қораловчи “Қутадғу билиг” асари ўқувчи-ёшлар маънавий дунёсини бойитишда муҳим манбадир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг., Тошкент. 1995.
2. Маънавият юлдузлари., Тошкент. 2005.



ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУАММОЛИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Фахриддинова Гулнора Усмановна

Андижон туман 16-мактабнинг
математика фани ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада таълим жараёнида муаммоли вазиятдан фойдаланиш самарадорлиги тўғрисида фикрлар юритилган.

Калит сўзлар. Муаммоли таълим технологияси, интеллектуал сифатлар, хотира, тасаввур, англаш, исботлаш, текшириш, тушунтириш.

Муаммоли таълим технологияси жуда қадим замонлардан шаклланиб келган. Жумладан, қадимги Грецияда муаммоли савол-жавоблар, қадимги Ҳиндистонда ва Хитойда муаммоли баҳс-мунозаралардан кенг фойдаланилган. Муаммоли таълимни америкалик психолог, файласуф педагог Дж.Дьюи 1894 йилда Чикагода ташкил этган тажриба мактабида қўлланган. XX асрнинг 60-йилларида бу йўналишда тадқиқотлар олиб борилди. 70-80-йилларга келиб, амалиётга жорий қилинмоқда.

Муаммоли таълимнинг асосий ғояси билимларни ўқувчиларга тайёр ҳолда бериш эмас, улар томонидан дарс мавзусига тегишли муаммолар бўйича ўқув тадқиқотларни бажариш асосида ўзлаштирилишини таъминлашдан иборат. Муаммоли таълим машғулотларини ташкил этиш ва бошқариш куйидаги босқичларни ўз ичига олади:

-ўқув фани ва дарслар мавзусини ўргатишда улар билан боғлиқ муаммоли масалаларни белгилаш;

-улардан муаммоли вазиятлар ҳосил қилиш ва амалда фойдаланишни олдиндан режалаштириб бориш;

-ўқувчиларнинг тайёргарлик даражасини ҳисобга олиш;

-зарур ўқув воситаларини тайёрлаш;

-муаммоли вазиятдаги мавжуд зиддиятни кўрсатиш;

-топшириқни ва уни ечиш учун етарли шартларни аниқ баён қилиш;

-ўқувчиларнинг муаммони ҳал этишда йўл қўяётган хатоларини, уларнинг сабабини ва хусусиятини кўрсатиш;

-ўқувчиларнинг нотўғри тахминлари асосида чиқарган хулосалари оқибатини муҳокама этиб, тўғри йўлни топишларига кўмаклашиши ва бошқалар.

Муаммоли таълим жараёнини куйидаги учта асосий босқичга ажратиш мумкин:

1.Муаммоли вазият ҳосил қилиш.

2.Муаммони ечиш тахминларини шакллантириш.

3.Ечимнинг тўғрилигини текшириш(олинган ечим билан боғлиқ ахборотни тизимлаштириш орқали).

Муаммолар назарий ва амалий йўналишда бўлади. Дарсда ҳосил қилинадиган муаммоли вазият ҳамда ўқувчиларга ҳал этиш таклиф этиладиган муаммога қўйиладиган эн асосий талаб – ўқувчиларнинг қизиқишини оширадиган, энг камида эса ўқувчи – ёшларда қизиқиш ҳосил қиладиган бўлиши кераклигидан иборат. Акс ҳолда кўзда тутилган натижага эришиш имкони бўлмайди.

Муаммо ўқувчиларнинг билим даражаларига ҳамда интеллектуал имкониятларига мос бўлиши шарт. Ҳосил бўлган муаммоли вазиятни ечиш учун топшириқлар янги билимларни ўзлаштиришга ёки муаммони аниқлаб, яққол ифодалаб беришга ёки амалий топшириқни бажаришга йўналтирилган бўлади.

Ўқувчиларнинг муаммоли вазиятни тушунишлари, унинг келиб чиқиш сабаблари ҳамда нималарга, қанчалик даражада боғлиқлигини идрок қила олишлари натижасида ҳосил бўлади. Бундай тушуна олиш эса ўқувчиларга мустақил равишда муаммони ифодалай олиш имкониятини беради.

Муаммони ечиш тахминларини шакллантиришда ўқувчи ўзлаштирган билимлари асосида кузатиш, солиштириш, таҳлил, умумлаштириш, хулоса чиқариш каби ақлий фаолиятларни бажаради.

Ақлий фаолиятдаги асосий жараёни бўлиб, фикрлашнинг сифати унинг мантикийлиги,



мустақиллиги, ижодийлиги, илмийлиги, асослилиги, узвийлиги, тежамлилиги, мақсадлилиги, тезлиги, таҳлилийлиги, қиёсийлиги, умумлаштирилганлиги, хусусийлаштирилганлиги, кенглиги, чуқурлиги, ишонарлилиги, реаллиги, ҳаққонийлиги даражаси билан белгиланади. Шу билан бирга интеллектуал сифатлар хотира, тасаввур, англаш ва шу каби психологик жараёнларнинг тезлиги ҳамда бошқа параметрлари билан боғлиқ.

Интеллектуал тараққиёт даражаси ўқитувчи ва ўқувчиларда қанча юқори бўлса, шунчалик яхши натижаларга эришиш имконияти ҳосил бўлади.

Шунга кўра ўқувчиларда муаммони сезиш, уни аниқлаш, ечимига доир тахминни тўғри белгилаш ва ечимнинг тўғрилигини текшириш қобилиятлари ривожланиб боради.

Муаммони ҳал этишни 3 та босқичга ажратиш мумкин:

1. **Исботлаш** – бу муаммонинг илгари тўғри деб тан олинган сабаблари билан боғлиқликларини топиш асосида амалга оширилади.

2. **Текшириш** – бундан танланган сабабнинг оқибатида ҳал этилаётган муаммонинг ҳосил бўлиши тўғрилигини асослаш билан амалга оширилади.

3. **Тушунтириш** – бу муаммонинг ечими нима учун тўғрилигини тасдиқловчи сабабларни аниқлаш асосида амалга оширилади.

Муаммоли таълимнинг бош мақсади – ўқувчиларнинг муаммони тўлиқ тушуниб етишига эришиш ва уларни ҳал эта олишга ўргатишдан иборат. Муаммоли таълимни амалиётда қўллашда асосий масалалардан бири ўрганилаётган мавзу билан боғлиқ муаммоли вазият яратишдан иборат.

Турли ўқув фанлари бўйича ўқитувчилар ўқув жараёнида муаммоли вазият яратиш усуллари, муаммоли вазиятни ҳал этиш даражалари, муаммоли, муаммоли вазиятни ечишда қўлланиладиган усуллар каби илмий-методик ҳолатларни билиши ва унга амал қилиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўқитувчи учун методик қўлланма. Т.2019.

2. Йўлдошев.Ж, Усмонов.С. Педагогик технология асослари, Тошкент. 2004.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH

Eshqulova Maftuna Tangirkulovna

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahar
15- maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda informatikani bilish o‘ta muhim ahamiyat kasb etganligi bois fanlarni o‘qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or usullarini qo‘llash ta‘limdagi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsion texnologiyalar, animatsion video, audio yozuv, elektron qo‘llanma, animatsiya, interfaol usullar.

Bugungi kun o‘qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas‘uliyatli vazifa yuklangan bo‘lib, ta‘lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo‘lib, ta‘limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o‘quvchilarda o‘z faniga qiziqish uyg‘otishlari, hurmat-ehtirom tuyg‘ularini shakllantirib borishlari talab etiladi. Ta‘limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o‘rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini kengaytirish, ma‘naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta‘limiy tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta‘lim-tarbiya jarayoniga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondashuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan biri, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o‘tishda mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi.

Zamonaviy kompyuterlarni boshqara olish malakasiga ega bo‘lish har bir yosh avlodga zarurdir. Shuning uchun, umum ta‘lim maktablarida Informatika fanining birinchi va muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda aniq bir fikrlash usulini shakllantirishdir. O‘qitish shakli va usuli yosh o‘quvchilarning fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Masalaning qiyin tomoni shundaki, bir tomondan o‘quvchining fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularga zamonaviy kompyuterlar olami haqidagi bilimlarni qiziqarli va uyg‘un ko‘rinishda berishdir.


Boshlang‘ich sinflarda o‘qish, ona tili, ingliz tili, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko‘rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan: ingliz tili fanlarida katta ekranda harflarni, so‘zlarni bir-biriga qo‘shib o‘qish, so‘ngra kichik ertak va hikoyalarni o‘qish, harflarni to‘g‘ri va chiroyli yozish; matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli o‘yinlar tashkil qilish; tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi soddal slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin. Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o‘quvchining og‘zaki nutqini rivojlanishiga, og‘zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchiga katta yordam beradi. O‘quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o‘tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Kitob.uz saytida 1-4 sinf o‘quvchilari uchun deyarli barcha fanlarning elektron darsliklari mavjud. Ammo ular matn va ovoz shaklida taqdim etilmagan. Elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida, slayd-shou ko‘rinishda berish maqsadga muvofiq. Audio va video axborotlarning o‘zaro birgalikda qo‘llanishi o‘qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

Elektron darslikdan mustaqil ta‘lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o‘quv materiallari o‘quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalaniladi.

Bu kabi texnologiyalarni qo‘llashda, dars va mashg‘ulotda qaysi darajadagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni nazarda tutilganiga bog‘liqdir. Rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalarining muammoli ta‘lim yo‘nalishi keng qamrovli bo‘lib, o‘quvchilarni o‘ylashga, muhim xulosalar chiqarishga qaratilgan.



Dars jarayonida AKT ning afzalliklari va kamchiliklarini T sxemasi ko‘rinishida tasvirlanishi.



Dars jarayonlarida o‘qitishning muammoli topshiriqlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish- o‘quvchilarning mustaqil tadqiqotchilik faoliyati oshirish bilan birga tashabbuskorlik tuyg‘ulari ortib, o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqaruvi amalga oshadi, yaratuvchanlikka undaydi, yaratuvchanlikni o‘rgangan bola boshqa har qanday sohaga hech qiyinchiliklarsiz erishadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. R. R. Boqiyev. “Informatika” fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish metodikasi. Metodik qo‘llanma. T.: TDPU, 2012 y.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. T.: TDPU, 2003 y.
3. Yoldoshev J.G‘, Usmonov C.A, “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent-2004y.



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SODDA MASALALARNI YECHILISHINI MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Kattayeva Feruza Baxranovna

Samarqand viloyati Samarqand shahar
14- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqola metodologik mazmunga ega bo‘lib, unda boshlang‘ich ta’limda soddalarni yechilishini multimedia vositalari yordamida tushuntirishning metodik xususiyatlari ta’kidlab o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: soddalarni, multimedia, taqdimot, murakkab masala, ijodiy topshiriq.

Boshlang‘ich maktablarda ham sifat, ya’ni o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi birinchi o‘rinda turadi. Axborot texnologiyalaridan esa o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bolalarni o‘qishga o‘rgatishi, ularning bilishga bo‘lgan qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini shakllantirishi va rivojlantirishi hamda ta’lim jarayoni va fan asoslarini chuqur o‘zlashtirishi uchun zarur bo‘lgan ta’lim vositalari bilan ta’minlashi lozim. Uning asosiy vazifalaridan biri - bolalarning bilishga bo‘lgan xarakterlarini kuchaytirishdan iborat.

2- sinfdan boshlab soddalarni va murakkab masalalarni yechish ketma-ket tartibda berib boriladi. Eng avvalo o‘quvchilar o‘qituvchining topshirig‘i bilan amaliy xarakterdagi mashqlarni bajaradilar.

Masalan, 30 ta cho‘pga 70 ta cho‘pni qo‘shganda nechta cho‘p bo‘ladi, degan o‘qituvchining savolini o‘quvchilar bevosita cho‘plarni orqali bajaradilar. O‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar masalada berilganlarni elementar mulohazalarga ajratadilar: masalada berilganlar yoki bizga nimalar ma’lum degan savol qo‘yadi;

- masalada savoli yoki nimani bilish kerak;
- kerakli amalni bajarish;
- masalaning javobini keltirib chiqarish;

Bundan keyin o‘quvchilar masalalarni yechishda sonli berilganlarni tasvirlovchi rasmlardan foydalanadilar. Masala yechish malakalari rivojlangan sari o‘quvchilar tushunadigan predmet va hodisalar orasidagi bog‘lanishga doir masalalarni yecha boshlaydilar.

Soddalarni o‘quvchilarni matematik munosabatlar bilan tanishtirishning muhim vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Sodda masalalardan ulushlar, qator geometrik tushunchalar va algebra elementlarini o‘rganishda ham foydalaniladi.

Masalalarni yechish orqali o‘quvchilarda ushbu malakalar tarkib topmog‘i lozim.

1. Masalani tinglashni o‘rganish va uni mustaqil o‘qiy olish. Masala ustida ishlash uning mazmunini o‘zlashtirishdan boshlanadi. O‘quvchilar hali o‘qish malakasiga ega bo‘lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o‘qituvchi o‘qib beradigan masala tekstini tinglashga, shartning muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o‘rgatish kerak. Shundan keyin masala shartini yaxshiroq o‘zlashtirish maqsadida, har bir o‘quvchi masala matnini tinglabgina qolmay, balki masalani mustaqil o‘qib chiqishi zarur;

Masala matni o‘qituvchi yoki o‘quvchilar tomonidan bir-ikki marta o‘qiladi, ammo bunda bolalarni masala matnini bir marta o‘qishdayoq uning mazmunini tushunib olishga asta-sekin o‘rgata borish kerak.

2. Masalani dastlabki analiz qilish (ma’lumni noma’lumdan ajratish malakasi). Ma’lumni noma’lumdan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog‘lanishni ochish - bu eng muhim malakalardan biri, bunday malakaga ega bo‘lmay turib, masalalarni mustaqil yechishga o‘rganib bo‘lmaydi.

3. Masalani qisqa yozish malakasi. Masala teksti ustida og‘zaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik terminlar tiliga o‘tkazish va qisqa yozuv shaklidagi matematik strukturasini belgilash kerak (rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar).

Shuni nazarda tutish kerakki, barcha hollarda ham qisqa yozuvni bajarish bilan bir vaqtda masala shartining tahlili ham amalga oshiriladi. Aslini aytganda, qisqa yozuvning vazifasi shundan iborat. Haqiqatan ham masala shartining qisqa yozuvi o‘quvchilar xotirasiga tayanch bo‘lib, son ma’lumotlarni tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima berilgan va nimani izlash kerakligini bayoniy tushuntirish imkonini yaratadi.



1. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish malakasi. Oldin sodda masalani yechishda amal tanlash masalasini qarab chiqishga to'xtalamiz. Bu malaka birinchi sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi, ikkinchi va uchinchi o'quv yillarida yanada rivoj toptiriladi, ya'ni ba'zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash ishini bajarish asosi o'zgartiriladi.

2. Yechimni bajarish, uni o'qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi. Sodda masalalardan boshlaymiz. Sodda masala arifmetik usul bilan ham, algebraik usul bilan ham yechish mumkin. Bu o'rinda masalalarni arifmetik usul bilan yechish haqidagina so'z boradi, masalani algebraik usulda yechish keyinroq alohida qaraladi.

O'quvchilarning masalalar yechish malakasini oshirishda zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Матвеева Н.А. Методические приёмы обучения составлению текстовых задач: Математические задачи в начальной школе. // Нач.шк. -2003. -№6. – с.41-45.

2. Qosimov F.M. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar tizimi (monografiya). T.Fan va texnologiya,2011.–B. 156.

3. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2005 yil 4-son. 10-11 betlar



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR

Xotamova Zarnigor Mamurjonovna

Samarqand viloyati Samarqand tumani

45- maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy salohiyatini rivojlantiruvchi omillar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: aqliy salohiyat, tarjibaviy usullar, rivojlantiruvchi omillar.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk axloqiy odobli, kishilar bo‘lib yetishishi hozigi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Ma‘lumki o‘quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo‘lga qo‘yish uchun, avvallo, ularning harakter xususiyatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Har bir o‘quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o‘zlashtirgani aniqlamay ular bilan yakka yakka munosabatga kirishish mumkin emas.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishonuvchan tashqi taassurotlarga beriluvchan bo‘ladilar. Buyuk alomallarimiz ta‘kidlaganidek, kishining fe‘l atvori hammadan ko‘ra ko‘proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo‘lgan sifatlar mustahkam o‘rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarini tarkib toptirish yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun mas‘uliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o‘qituvchining har bir gapi har bir hatti harakati ta‘sir ko‘rsatishi uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o‘quvchilar o‘qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar. Ana shu davrga o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning ma‘naviyati, aqliy salohiyatiga juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o‘tkazishi, ularni g‘aroyibotlar olamiga olib kirishi, faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mana shunday yondashishlar o‘quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan davidagi psixologik holatiga mos tarbiyaviy vositalarni tanlash va yangi vositalarni topish.

Ta‘lim jarayonida har bir o‘quvchining psixik dunyosiga oqilona yo‘l topa olish muvaffaqiyatlarning garovidir. Ta‘lim - tarbiya jarayonida bolalarning hayotiy faoliyatini shunday uyushtirish lozimki bunda bolalarda shaxsning kichik yoshda o‘quvchilarda tarkib topgan xususiyatlar toboro boyib va mustahkamlanib boradi. Maktab ta‘limini dastlabki yillaridagi qiziqishlar, ya‘ni bilishga bo‘lgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga bo‘lgan qiziqishlar ko‘proq intellektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi.

Bola ma‘lum ishni bajarayotganda o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotmasligi, o‘ziga topshirilgan ishni bajara olishini bilish, buning uchun esa faqat g‘ayrat –shijoat halollik ko‘rsatish kerakligini anglashi kerak. O‘quvchilarda ta‘lim va tarbiya olish, dam olish tartibining to‘g‘ri uyushtirilishi ham o‘quvchilarda qiziqishlarning barqaror bo‘lishiga muhim ahamiyatga ega.

Ta‘lim jarayonida bir hillik, uzoq cho‘zilgan faoliyat ko‘p hollarda bolani toliqtiradi, uning faolligini pasaytiradi va hali to‘la belgilanib bo‘lmagan qiziqishlarni so‘ndiradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni rivojlanishi to‘g‘ridan – to‘g‘ri ta‘limning tashkil qilinishiga bog‘liq. Shuning uchun o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutishlari kerak.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘stirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo‘naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, muvaffaqiyatli o‘sadi. Tushuncha so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi bo‘lgan so‘zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so‘z (so‘z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo‘ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. P.Ivanov “Umumiy psixologiya” kitobida nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langanligini, nutq bo‘lmasa, tafakkur



ham bo‘lmasligi, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab bo‘lmasligi haqida fikr yuritir ekan, bu fikr ayni haqiqatdir.

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo‘lishini ta’minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug‘at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o‘stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o‘rganishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Nutqdan o‘quvchi fikriy rivojining asosiy o‘lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O‘quvchining barcha o‘quv predmetlaridan materialni o‘zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o‘quvchi o‘z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asqarova M, G‘.Qodirova “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish” T.: “O‘qituvchi” 2001 y.
2. Voxidov M. “Bolalar psixologiyasi” T.: O‘qituvchi. 1982 y.
3. Nishonova Z. Alimova G. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” T.: 2006 y.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000